



1995-yil 10-iyundan chiqa boshlagan

www.mt.uz / milliytiklanish2023@mail.uz

tiklanish

MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY GAZETASI

№ 10 (1198) 2023-yil 5-aprel, Adadi - 8657  
chorshanba



4 **ENDI FUQARONI  
XALQARO  
HUJJATLAR HAM  
HIMOYA QILADI**

**BOSH  
QOMUSIMIZDA  
TINCH HAYOTIMIZ  
KAFOLATLANYAPTI**



Valyuta kursi:

AQSH dollari 11381.20  
1 YEVIRO 12440.79.  
1 Rossiya rubli 143.40.  
1 Angliya funt sterlingi  
14239.02.  
1 Yaponiya iyenasi 85.69.  
05.04.2023

# QORAQALPOG'ISTON

## TARAQQIYOTIDA YANGI SAHIFA OCHILMOQDA



✓ **QORAQALPOG'ISTONDAGI 452 TA  
MAHALLANING HAR BIRIGA TO'G'RIDAN-  
TO'G'RI 500 MILLION SO'MDAN QO'SHIMCHA  
MABLAG' AJRATILADI.**

✓ **MAHALLALARINI QO'LLAB-QUVVATLASH  
JANG'ARMAJI TASHKIL QILINIB, UNGA JORIY  
YILDA 250 MILLIARD SO'M YO'NALTIRILADI.**

✓ **AHOLI TALABINI INOBATGA OLIB, JORIY YILDA  
4 MINGTA UY-JOY QURILADI.**

## BIZ G'OYA ATROFIDA BIRLASHYAPMIZ



ISSN 2010-7714

REFERENDUM 2023

Nima uchun  
referendumda  
faol ishtirok  
etishim kerak? **4**

Taraqqiyot  
ta'lim-  
tarbiyaga bog'liq.  
Chunki...




**3**

NUQTAYI NAZAR

**11**

# "Z"

AVLODGA  
TAALLUQLI  
GAPLAR



## «MILLIY TIKLANISH» YETAKCHISI KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR MAVZUSIDA VIDEOCHAT O'TKAZDI

**K**echa «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashi raisi Alisher Qodirov ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari bilan konstitutsiyaviy islohotlar mavzusida ochiq muloqot o'tkazdi. Qayd etish joizki, partiya yetakchisiga yo'llangan savollar tahliliy yurtdoshlarimizning bo'lajak referendumga juda katta qiziqish bilan qarayotganlarini ko'rsatmoqda. Masalan, bir tinglovchi nega aynan Konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritish zarurati tug'ilgani bilan qiziqdi. Partiya yetakchisi tinglovchi savoliga javob qaytarar ekan, 2019-yili o'tgan parlament saylovlaridan keyingi tahlil fuqarolarning qonunlardan ko'ngli to'lmayotganini, ya'ni amaldagi qonunlar bugungi real hayotga javob bermay qolayotganini ko'rsatdi. Shundan keyin Oliy Majlis Qonunchilik palatasida maxsus guruhi tuzilib, amaldagi qonunlar birma-bir ko'rib chiqildi va haqiqatan ham amaldagi qonunlar Yangi O'zbekiston islohotlariga javob bermayotgani, hatto Konstitutsiyaga ham zid holatlar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Birgina «propiska» masalasini olaylik. Ming-mingab yurtdoshlarimiz hayotiga aloqador bo'lgan ushbu masalani qonun ochiqdan-ochiq cheklar edi. Ammo Konstitutsiyada bu masalani cheklash mumkin emasligi belgilab qo'yilgandi. Ana shunday savollar, mulohazalar chiqavergach o'tgan yili O'zLiDeP bilan maslahatlashib, konstitutsion islohotlar o'tkazish bo'yicha bir to'xtamga keldik, — dedi Alisher Qodirov. Partiya rahbari ochiq-oshkora o'tgan muloqotda o'nlab tinglovchilarning savollariga javob qaytardi. Ikki soat davom etgan videochatda 150 dan ortiq ishtirokchi qatnashdi.

# QORAQALPOG'ISTON TARAQQIYOTIDA YANGI SAHIFA OCHILMOQDA



**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qoraqalpog'iston Respublikasiga uyushtirilgan navbatdagi tashrifini yurtdoshlarimiz tarixiy uchrashuvlarga boy bo'lgan tashrif deb baholamoqdalar. Dastlab davlatimiz rahbari Kegeyli tumanida bo'lib, Qoraqalpog'istonni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish masalalari muhokamasi bo'yicha yig'ilish o'tkazdilar.** Shu o'rinda ushbu muhim yig'ilishdan avval 6 ta yirik korxonani ishga tushirish marosimi o'tkazilganini ta'kidlash joiz. Unda Beruniy tumanidagi «Beruniy bug'doy klaster» hamda «Rayhon apparel», Qora'zak tumanidagi «Qoraqalpoq sement» zavodining 3-bosqichi, Qo'ng'iro't tumanidagi «KKRasi kemikal», Nukus shahridagi «Azimut hotel», To'rtko'l tumanidagi «Xozagro» vakillari videoaloqa orqali majmualar salohiyati haqida axborot berdilar. Ta'kidlanishicha, mazkur korxonalarda jami 1 100 ta doimiy ish o'rni yaratiladi, ular orqali ishlab chiqarishga 300 milliard so'm, eksportga 20 million AQSH dollar qo'shiladi. Nihoyat, Prezidentimiz ramziy tugmani bosib, yangi korxonalarni ishga tushirdilar. Shundan so'ng, Qoraqalpog'istonni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda yurtdoshimiz «Biz bitta el va bitta yurtimiz! Hamma viloyatlar Qoraqalpog'istonni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishga bel bog'lagan. Har bir tumanga vazirlar, viloyat hokimlari, idora va banklar rahbarlari biriktirilgan. Buning natijalari barcha tumanlarda ko'rinayapti va bu ishlar to'xtamaydi,» — dedilar. Qayd etilishicha, so'nggi olti yilda hududda 15 trillion so'm investitsiya hisobiga 5 ming 300 dan ziyod loyiha amalga oshirilgan. Tadbirkorlar soni 2

baravarga ko'payib, 46 mingta doimiy ish o'rni yaratilgan. Ilgari sanoati eng past bo'lgan 6 ta tumanda ishlab chiqarish hajmi 2-3 baravarga oshib, Qoraqalpog'iston iqtisodiyotidagi ulushi 12 foizga yetgan. Umuman, bu davrda Qoraqalpog'istonda sanoat 1,3 baravar o'sib, 61 turdagi yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, kimyo, qurilish materiallari, oziq-ovqat, tekstil va to'qimachilik, farmatsevtika sanoati mahsulotlari tayyorlash 2 baravardan ziyodga o'sgan. Prezidentimiz har safar Qoraqalpog'istonga kelganlarida va qoraqalpoq xalqiga yaxshi yangiliklar, katta e'tibor va mehr ko'rsatadilar. Bu safar ham shunday bo'ldi va Davlatimiz rahbari hududni rivojlantirish yuzasidan o'z takliflarini bildirib, bir qator imtiyozlar berilishini e'lon qildilar. Xususan, davlatimiz rahbari Qoraqalpog'iston aholisi farovonligini yanada oshirishga qaratilgan uchta yangi tashabbusni ilgari surdilar. Birinchisi, Qoraqalpog'istondagi 452 ta mahallaning har biriga to'g'ridan-to'g'ri 500 million so'mdan qo'shimcha mablag' ajratiladi. Buning uchun alohida Qoraqalpog'iston mahallalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil qilinib, unga joriy yilda 250 milliard so'm yo'naltiriladi. Ikkinchisi, kadastr yo'q 38 ming uy-joy va ko'chmas mulkka tegishli hujjatlar qilib beriladi. Uchinchisi, aholi talabini inobatga olib, joriy yilda 4 mingta uy-joy quriladi. Bunga qo'shimcha, zamonaviy loyiha asosida 4 ming yakka tartibdagi uy-joy qurishga 4 sotixdan yer ajratiladi. Shuningdek, Qoraqalpog'istonni «ishsizlikdan xoli hudud»ga aylantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash masalalariga e'tibor kuchaytiriladi. Bundan tashqari,

hududdagi 51 ta maktabda o'quvchilar soni me'yordan 2 baravar ko'pligi, 208 ta mahallada ichimlik suvi ta'minoti yaxshi emasligi, 120 kilometr magistral hamda eng serqatnov 600 kilometr ichki yo'llarni ta'mirlash kerakligi ta'kidlanib, 9 ta tumanda maktabgacha ta'lim muassasalari qurish, maktab va shifoxonalarni ta'mirlash, shu jumladan issiqlik ta'minotiga qo'shimcha mablag' ajratish belgilandi. Yo'llarni ta'mirlash, elektr energiyasi taqchilligi choralarini ko'rish bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi. Prezidentimiz tomonidan qaysi soha tilga olinmasin, albatta mavjud muammolar tahlil etilib, ularni hal qilish yo'llari aniq belgilab berilishi diqqatga sazovordir. Tashrif davomida Prezidentimiz totuvlikka bag'ishlangan madaniy tadbirda ishtirok etdilar. Shundan keyin Nukus yoshlar texnoparkini borib ko'rdilar. Nukus shahridagi «Altin jag'is» mahallasida ham bo'lib, aholi bilan samimiy muloqot qildilar. Davlatimiz rahbarining Qoraqalpog'istonga e'tiborlari biz deputatlarga o'ziga xos vazifa ham bo'ldi, desam yangilishmagan bo'laman. Faxr bilan aytaolamanki, bu galgi tashrif ham xalqimizning buyuk kelajakka bo'lgan yuksak ishonchini yanada mustahkamladi. Shuning uchun ham biz Vatanimizni Prezidentimizday ardoqlab, sevim, do'stlik va birodarlikni, tinchlik-osoyishtaligimizni mustahkamlashga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak, deb o'ylayman.

**Tajibabon ROMANOV,**  
partiyaning Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Kengashi raisi,  
Jo'qorg'i Kenges deputati

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
REFERENDUMI  
2023

19

*O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.*

-modda.

O'zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni 2016-yilda 12,1 mln bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 24 milliondan oshdi. Internet tarmog'i qamrovi esa 2016-yildagi 28 foizdan 2022-yilda 98 foizga yetgan.



So'nggi yillarda jarimalarni qo'llash, ularni undirishda insonparvarlik va odillik tamoyillariga rioya etilayotgani yaxshi, albatta. Ma'lumki, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalarida yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun solingan jarimani huquqbuzar jarima belgilangan kundan e'tiboran 60 kun ichida to'lashi belgilangan.

## JARIMA TO'LASH TIZIMI SODDALASHTIRILDI. VA...

Shu o'rinda huquqbuzar jarima solish to'g'risidagi qarorni olgan kundan boshlab 15 kun ichida jarimaning 70 foizini to'lasa, u jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinishi belgilangan edi.

Prezidentimizning 23-martdagi "Aholiga ma'muriy jarimalarni to'lashda qo'shimcha qulayliklar yaratish hamda sohada korrupsion omillarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori esa iqtisodiy salohiyati kam bo'lgan fuqarolar uchun juda yaxshi qulaylik bo'ldi. Qarorga muvofiq, 2023-yil 1-maydan boshlab, ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha qo'llanilgan jarimalarni ixtiyoriy to'lash tizimi yanada soddalashtirildi. Ya'ni endi huquqbuzarga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgandan boshlab o'n besh kun ichida u jarima miqdorining 50 foizini, o'ttiz kun ichida esa 70 foizini ixtiyoriy ravishda to'lasa, jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinadi. Mazkur tartib endilikda sud qarorlariga asosan qo'llaniladigan jarimalarga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bunday qulayliklarni qonun

hujjatlarida belgilash va tezroq amaliyotga joriy qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga bir hafta muddatda qonun loyihasini ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish vazifasi ham yuklatildi.

Yana bir imtiyoz: Fuqaro va tadbirkorlarni qiynayotgan muammolarni hal etish maqsadida Majburiy ijro byurosi tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy jarimaning miqdori ijro hujjatida undirilishi belgilangan summadan yuqori bo'lishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi. Endilikda majburiy ijro byurosi nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga hamda ma'muriy jazo qo'llashga faqat O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat ijrochisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bosh davlat ijrochilari, ularning o'rinbosarlari, shuningdek, Majburiy ijro byurosining tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari haqiligi belgilab qo'yildi. Joriy yil 1-sentyabrda boshlab esa sudlanganlik muddatining o'tib

ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi haqidagi ma'lumotlar Ichki ishlar vazirligining "Tezkor ma'lumotlar" yagona axborot tizimida avtomatik ravishda onlayn shakllantiriladigan bo'ldi. Bu bo'yicha ma'lumotnoma sudlanganlik muddati tugagan yoki sudlanganlik olib tashlangan sananing etrasidan kechiktirmasdan tegishli shaxsning Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsiy kabinetiga avtomatik ravishda "bepul" yuboriladi. Umuman olganda, bunday qulayliklardan eng avvalo, inson manfaatini har narsadan ustun qo'yishni maqsad qilgan davlatlarda foydalaniladi. Ushbu hujjat yana bir karra aholiga ma'muriy jarimalarni to'lashda qo'shimcha qulayliklar yaratish va jarima yukini kamaytirish, davlat organlarining aholi bilan munosabatlarida ortiqcha byurokratik to'siqlar va korrupsion omillarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

**Farhod ASHMATOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



## INTERNET VA KONSTITUTSIYA...

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Ilhom Abdullayev Toshkent shahrida o'tayotgan tadbirlarda so'zga chiqib, asosiy e'tiborni yangilanayotgan Konstitutsiyaga kommunikatsiya va Internet tarmog'i bo'yicha kiritilayotgan o'zgarishlarga qaratdi.

Deputatning fikricha, Qomusimizning 31-moddasida fuqarolar yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega ekani, ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yilishi, har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek, noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmagan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga egaligi muhrlab qo'yilyapti.

Shuningdek, 33-moddada davlatning fuqarolarga Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi kafolatlanayapti.

Ta'kidlanganidek, O'zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni 2016-yilda 12,1 millionlik bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 24 milliondan oshdi. Internet tarmog'i qamrovi esa 2016-yildagi 28 foizdan 2022-yilda 98 foizga yetgan.



## TARAQQIYOT TA'LIM-TARBIYAGA BOG'LIQ. CHUNKI...

Jizzax viloyati Kengashi faollari mahalliy Kengash deputatlari bilan birga Forish hamda Zafarobod tumanlarida bo'lib, saylovchilarga yangilanayotgan Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati tubdan o'zgarayotganini gapirib berdilar. Xususan, deputatlar Bosh Qonunga yoshlar hayoti bilan bog'liq yangi normalar kiritilayotganini aytib, ular yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag'batlantirishga xizmat qilishini ta'kidladilar. Kelajagimiz

egalaringning ma'naviy, intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun esa ularning ta'lim olishi, sog'lig'ini saqlashga, uy-joy, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. – Yoshlarning konstitutsiyaviy normalar bilan qo'llab-quvvatlanayotgani bejizga emas. Chunki har qanday davlatning tarixiy taraqqiyoti, xalq farovonligi yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor bilan belgilanadi, – dedi viloyat Kengashi raisi Dilshod Mirzaahmedov.

*O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yoxud qonunga muvofiq boshqa tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudqa qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.*

139-modda.

*Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi.*

61-modda.



## ALISHER QODIROV YANGIYERDA

Konstitutsiyamizda hayot-mamot masalasi deya e'tirof etilayotgan tarbiya va ta'limga ustuvorlik berilganini barcha birdek qo'llab-quvvatlamog'da.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi yetakchisi Alisher Qodirovning yangiyerlik saylovchilar bilan uchrashuvida ham ana shunday munosabat yaqqol sezilib turdi.

– Yangi O'zbekiston islohotlari mohiyatida inson ustuvorlik qilayotgani, inson qadr-qimmatining amalda ulug'lanayotgani aslida, tarixiy voqeelikdir, – dedi Alisher Qodirov.

Globalashayotgan dunyoda O'zbekistonning o'z o'rniga ega bo'lishi sizni bizga bog'liq. Keyingi yillardagi tub islohotlar samarasi ham buni ko'rsatib turibdi. Ya'ni, hech kim chetdan kelib, hayotiy muammolarimizni hal qilib bermaydi. O'zbekistondagi islohotlarning navbatdagi bosqichidagi o'zgarishlar Bosh Qomusimizdan boshlanayotgani esa istiqboldagi xatti-harakatlarimiz uchun mustahkam huquqiy asos yaratilayotganidan dalolatdir.

Alisher Qodirov shu kuni Yangiyer shahridagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan zamonaviy maktab ochilishida ham ishtirok etib, u yerdagi shart-sharoitlar bilan tanishdi. Partiya yetakchisi ustoz-muallimlarga yangilanayotgan Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati haqida keng tushuntirishlar ham berdi.



## NIMA UCHUN REFERENDUMDA FAOL ISHTIROK ETISHIM KERAK?

2040-yilga borib mamlakatimiz aholisi 50 millionga yetishi va ularning yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etishi kutilmoqda. Ularga munosib sharoit yaratish, umuman, Yangi O'zbekistonga xos jamiyat barpo etish, shubhasiz, mustahkam huquqiy poydevorni taqozo etadi.

Nukus shahrida Konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan targ'ibot uchrashuvida so'zga chiqqan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Ruslan Jumamuratov ana shular haqida gapirib, 220 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz takliflari asosida yangilanayotgan Bosh Qomusimiz inson huquqi va manfaatlarining chinakam himoyachisiga aylanayotganini ta'kidledi.

Tadbirida so'zga chiqqan partiyamiz faollari ham loyiha haqiqatan ming-minglab yurtdoshlarimiz taklif-mulohazalari asosida ishlab chiqilgan hujjat ekanini e'tirof etib, barchani referendumda faol ishtirok etishga chaqirdilar.

## USTOZLAR HAM ROZI. CHUNKI....

Pop tumanida o'tgan targ'ibot tadbirida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Abdumalik Akramov so'zga chiqib, yangilanayotgan Bosh Qonunda ta'lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshayotganini, bundan keyin ta'lim-tarbiya ishlariga qog'ozda emas, amalda ustuvorlik berilishini ta'kidledi.

– Jumladan, unda davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati kuchaytirilmoqda. Albatta, bu mamlakatimizdagi 685 ming nafardan ortiq o'qituvchi maqomini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham farzandlarimiz kelajagiga befarq bo'lmagan barcha yurtdoshlarimizni konstitutsiyaviy islohotlarda faol ishtirok etishga chaqiram, – dedi deputat.

Tadbirida ishtirok etgan ustoz-murabbiylar ham bu o'zgarishlarni bir ovozdan qo'llab-quvvatladilar.



## ENDI FUQARONI XALQARO HUJJATLAR HAM HIMOYA QILADI

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli... Ushbu qoidaning mohiyati shundaki, fuqarolar o'zining buzilgan huquq va erkinliklarini o'zgarlar huquqlarini buzmaganda holda mustaqil himoya qilish huquqiga egadirlar.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga bag'ishlangan navbatdagi targ'ibot tadbirida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Muxtabar Husanova so'zga chiqib, chilonzorlik saylovchilarga Bosh Qomusimizga har kim agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalangan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli ekani bo'yicha norma kiritilayotganini ta'kidledi.

– Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini nafaqat milliy qonunchilikdagi normalar, balki xalqaro hujjatlar asosida ham himoyalanshini ta'minlaydi, – dedi deputat.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
REFERENDUMI  
2023

*O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.*

*Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.*

13

-modda.

*Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi.*

58

-modda.



## QASHQADARYOLIKLAR BEFARQ EMAS!

3,5 millionli Qashqadaryo aholi ham keyingi yillarda viloyatda muhim o'zgarishlar amalga oshirilayotganiga guvoh bo'lmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o'zgarishlar salmog'i katta. So'nggi besh yildagina viloyatga 10 milliard AQSH dollar investitsiya jalb etildi. Tadbirkorlar soni 2,5 baravar ko'payib, qo'shimcha 325 mingta doimiy ish o'рни yaratildi. Joriy yilda esa viloyatga yana 1,5 milliard AQSH dollar investitsiya jalb etilib, 440 ming aholini daromadli ish bilan ta'minlash reja qilingan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Farhod Zayniyevning Qarshi shahrida, Jamshid Qosimovning esa Qamashi tumanidagi saylovchilari bilan o'tkazgan targ'ibot uchrashuvlarida "Inson qadri uchun" g'oyasi asosidagi o'zgarishlarni qashqadaryoliklar o'z hayotlarida his qilayotganlari alohida ta'kidlandi.

Bunday yangilanish va o'zgarishlarning huquqiy asosini mustahkamlash yo'lida boshlangan konstitutsiyaviy islohotlarga shu ma'noda qashqadaryoliklar befarq emas. Shu bois, targ'ibot uchrashuvida viloyat aholining umumxalq referendumida faol ishtirok etishi bot-bot tilga olindi.

## XALQ KONSTITUTSIYASI XALQNIKI

Ichki ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlari uchun "Konstitutsiyaning yagona manbai va muallifi xalqdir" hamda "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim" mavzularida ma'naviyat va ma'rifat darsi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Konstitutsiyaviy komissiya a'zosi Muxtabar Husanova hamda «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashi raisi o'rinbosari Mirodil Abdurahmonovlar so'zga chiqib, ayni paytda davlatimiz va jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar ro'y berayotgani, bu o'z navbatida asosiy Qonunimizga ham bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni taqozo etayotganini ta'kidlashdi.

Ma'ruzachilar inson huquqlariga oid normalar uch barobarga

oshgani, O'zbekiston – ijtimoiy davlat deb belgilanishi, unga ko'ra, barcha fuqarolar uyli-joyli bo'lishi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi, nogironligi bor shaxslar davlat tomonidan himoya qilinishi, shuningdek, ta'lim tizimining kafolatlanishi bilan bog'liq masalalarga kengroq to'xtaldilar.

Tadbirda respublika Ma'rifat targ'ibotchilari jamiyati a'zosi, tarix fanlari doktori Fayzulla Ernazarov ham so'zga chiqib, buyuk bobokalonimiz, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning boy ilmiy merosi haqida fikr yuritdi. Uning tavallud topganining 1050 yilligiga bag'ishlangan tantanalari YUNESKO shafeligida keng nishonlanishi, bu borada Davlatimiz rahbari tomonidan ham o'tgan yilning avgust oyida maxsus qaror qabul qilinganini bildirib o'tdi.



## BOSH QOMUSIMIZDA TINCH HAYOTIMIZ KAFOLATLANYAPTI



Navoiy viloyatining Nurota tumanida o'tgan tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Kozim Tojiyev hamda Navoiy viloyati Kengashi raisi Ilhom Rajabovlar so'zga chiqib, yangilanayotgan Konstitutsiya mamlakatimizning evolyutsion rivojlanishidan kelib chiqayotgan hayotiy zarurat ekanini, bu adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamligini ta'kidladilar.

– Konstitutsiyamiz zamondan orqada qolib ketmasagina, u shiddat bilan kechayotgan islohotlarning huquqiy asosi va osuda hayotimizning kafolati bo'la oladi, – dedi Ilhom Rajabov tadbir ishtirokchilarini Bosh Qonunga Rajabov tadbir o'zgartirishlar bilan tanishtirar ekan.

## SHAXSNI SUDNING QARORISIZ 48 SOATDAN ORTIQ USHLAB TURISH MUMKIN EMAS

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Nazir Sobirov Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlarida Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha o'tkazilgan targ'ibot tadbirida so'zga chiqib, Bosh Qonunda insonning huquq va erkinliklari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirilayotganini ta'kidladi.

– Mamlakatimizda o'lim jazosini taqiqlash konstitutsiyaviy norma darajasida belgilanayotgani insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi. Bundan tashqari, Konstitutsiyada shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emasligi ham belgilanyapti. Ya'ni, fuqaroning erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday

harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shartligi belgilab qo'yilyapti, – dedi N.Sobirov.

Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish va saqlashga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan bo'lib, bu orqali xalqaro e'tirof etilgan "Habeas corpus" institutini qo'llash ko'lami kengayadi.

Ma'lumki, jinoiy ta'qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi «Habeas corpus» deya nomlanadi. Bu atama 1679-yilda ingliz parlamenti tomonidan qabul qilingan bo'lib, u ayblanuvchi yoki fuqaroning qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi ustidan sud nazoratini amalga oshirish qoidalarini belgilab bergan muhim tarixiy hujjatdir.



**Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.**

27

-modda.

**Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o'z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi shart.**

34

-modda.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan targ'ibot tadbirlarida yangilanayotgan Bosh Qomusimiz adolatli va erkin jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadam sifatida ta'riflanayotgani bejiz emas.



## ERTANGI KUNIMIZ BUGUNGI HARAKATLARIMIZGA BOG'LIQ

Mamlakat, millat, xalq sifatida navbatdagi qadamlarimizni belgilab olishimizda dasturulamal bo'ladigan Konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayoni qariyb bir yilga cho'zildi. Loyiha bilan 5 milliondan ortiq yurtdoshlarimiz tanishgan bo'lsa, 200 mingdan ortiq takliflarning to'rtidan biri loyihada o'z aksini topdi.

Qayta-qayta ta'kidlanganidek, bular yangilanayotgan Konstitutsiyada jamiyatning hamma qatlamlari manfaati inobatga olingani, Yangi O'zbekistonni qurish g'oyasi atrofida barcha jipslashgani va Bosh Qonunimiz tom ma'noda xalq Konstitutsiyasiga aylanayotganidan dalolatdir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha 30 aprel kuni referendum o'tkazish haqidagi qarorini ham xalq xohish-istaklari e'tiborga olinayotganining isboti deyish mumkin.

Ma'lumki, referendum xalq irodasining bevosita ifodasi hisoblanib, u orqali milliy, mintaqaviy yoki mahalliy ahamiyatga molik eng muhim masalalar xalqning ovoz berishi orqali hal qilinadi. Ya'ni, referendum demokratiyaning eng muhim instituti bo'lib, muhim qarorlarni qabul qilishda xalqning bevosita ishtirokini ifodalaydi.

Referendumning saylovlardan farqi shundaki, referendum eng muhim umummilliy masalalar bo'yicha o'tkaziladi. Saylovlarda esa Prezident, deputatlar, mahalla raislari kabi mansabdor shaxslar saylanadi. Referendum zaruratga qarab istalgan vaqtda, saylov esa qonunda belgilangan sanada

o'tkaziladi.

Shu kunga qadar mamlakatimizda 3-marta, ya'ni 1991-yil 31-avgustda – mamlakatning davlat Mustaqilligini tasdiqlash, 1995-yil 26-martda – Prezident vakolati muddatini o'zgartirish va 2002-yil 27-yanvarda – ikki palatali parlamentni tashkil qilish bo'yicha referendum o'tkazilgan. Navbatdagi mamlakat Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasini ovozga qo'yish bo'yicha ilk referendumdir.

Demak, referendum o'tkazish amaliyoti xalqimiz uchun yangilik emas. Shu kunlarda joylarda o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlari, umuman, so'nggi yillarda Yangi O'zbekiston islohotlari bevosita xalqimizning faol ishtirokida amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin, odamlar bo'lajak referendumga befarq emaslar. Shu yurt, shu Vatani, shu Xalq barchamizniki, ertangi kunimiz qanday bo'lishi bugungi xatti-harakatlarimizga bog'liq, albatta.

Tarixda referendum institutining paydo bo'lishiga fransuz faylasufi Jan-Jak Russoning g'oyalari ta'sir ko'rsatgani aytiladi. U qonunlar masalasini faqat butun xalq hal qilishi mumkinligiga ishongan. Tarixiy jihatdan 1848-yildan boshlab referendum o'tkazila boshlagan mamlakatlardan biri Shveysariya bo'lib, uning Konstitutsiyasida mamlakatdagi eng yuqori qonun chiqaruvchi hokimiyat referendumda o'z xohish-irodasini bildiruvchi xalqqa tegishli ekanligi ko'rsatilgan.


**Jamshid KARIMOV,**  
xalq deputatlari Uchtepa tuman Kengashi deputati

## QADRIYATLAR ASOSIDA YANGILANAYOTGAN QOMUS

Yangiyer shahri va Mirzaobod tumanida o'tgan navbatdagi tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Sherzod Qulmatov so'zga chiqib, yangilanayotgan Konstitutsiyada insonning sha'ni, qadr-qimmat, ota-onalar va farzandlar zimmasidagi majburiyat yangi huquqiy normalar asosida mustahkamlanayotganini ta'kidladi.

Jumladan, 26-moddada insonning sha'ni va qadr-qimmat daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lmasligi belgilanayotgan bo'lsa, 77-moddada ota-onalar va ularni o'rni bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi uchun g'amxo'rlik qilishga majburligi muhrlab qo'yilaydi. 80-moddaga ko'ra esa, voyaga yetgan farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar.

– Bunday o'zgarishlar yurtimizda inson qadri ulug'lanib, Bosh Qonunimiz boshqa xalqlarga ham o'rnak bo'layotgan qadriyatlarimiz asosida yangilanayotganidan dalolat, – dedi Sherzod Qulmatov.



## BIZ G'OYA ATROFIDA BIRLASHYAPMIZ

Samarqand viloyati Kengashining navbatdagi yig'ilishida partiya deputatlik guruhining 2022-yildagi faoliyati yakunlari va 2023-yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalar ko'rib chiqildi.

Tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Sherzod To'xtashev so'zga chiqib, Yangi O'zbekiston islohotlari davrida siyosiy partiyalar faoliyatida yuz berayotgan o'zgarishlarga munosabat bildirdi. Deputatning fikricha, konstitutsiyaviy islohotlar ana shu jarayonlarning uzviy davomidir.

– Aholi soni ortib borayotgan

mamlakatimizda fuqarolarning munosib hayot kechirishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifaga aylandi, – dedi deputat. – Buning uchun barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv va ijtimoiy kafolatlar bo'lishi zarur. Ayni jihatlar O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topmoqda.

Bu, shuningdek Yangi O'zbekistonni qurish g'oyasi atrofida butun jamiyat jipslashayotgani, Bosh Qomusimiz esa tom ma'noda xalq Konstitutsiyasiga aylanayotganidan dalolat beradi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
REFERENDUMI  
2023

*Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular raisni saylaydi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli.*

*Davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarni amalga oshirishida ko'maklashadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari saylovi tartibi, ularning faoliyatini tashkil etish va vakolatlari qonun bilan belgilanadi.*

127-modda.



## FAROVONLIGIMIZ DAVLATNING OLIY MAQSADI VA...

Uchko'prik tumanida Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha o'tkazilgan targ'ibot tadbirida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Farida Afro'z so'zga chiqib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi deya e'lon qilingani va unda inson huquqlariga oid normalar 3 baravarga oshayotganini ta'kidledi.

– Yangi O'zbekistonda inson huquq va erkinliklari qonunlarimiz hamda davlat organlari faoliyatining mazmuniga aylanishi talabi qo'yilayotgani bejiz emas. Endi mansabdor shaxslar faqat fuqarolar manfaatini ko'zlab faoliyat yuritadi deganidir. Zero, uzoq yillar bu holat asosan qog'ozlarda amalga oshirildi, xolos. Shu jihatdan, yangilanayotgan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasi, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos, ham ishonchli kafolat bo'ladi, – dedi Farida Afro'z.

Deputat uchrashuv chog'ida mahalla faollari, yoshlar, xotin-qizlarga asosiy Qonunimizga kiritilayotgan o'zgartirishlar haqida keng ma'lumotlar berib, saylovchilarni qiziqtirgan savollariga javob qaytardi.

## ENDI "PROPISKA" MUAMMOSIGA QAYTILMAYDI

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha Quvasoy shahrida o'tgan navbatdagi targ'ibot tadbiri ishtirokchilariga konstitutsiyaviy ishlohotlarning mazmun-mohiyati, referendum jarayonlari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Bu haqida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Jahongir Mamajonovning ta'kidlashicha, Bosh Qomusimizda har bir shaxsning respublika hududida erkin harakatlanishi, turar va yashash joyini erkin tanlash, respublikadan tashqariga chiqish huquqi hamda O'zbekiston fuqarolarining mamlakatimizga monelihsiz qaytish huquqlari belgilab qo'yilaydi.

– Mazkur qoida bilan erkin harakatlanish oliy huquqiy norma sifatida mustahkamlanmoqdaki, bu "propiska" tizimi muammosiga ham barham beradi, – dedi Jahongir Mamajonov.



## ZUMRAD BEKATOVA AYOLLAR HAQIDA GAPIRDI



Sog'lik inson uchun eng zarur va birlamchi ne'matdir. Shu bois, yangilanayotgan Konstitutsiyada aholining bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishi yangi norma bilan kafolatlab qo'yilaydi. Bu mamlakatimizda ushbu soha davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini ko'rsatadi. Umuman, loyihada aholi salomatligini asrash bilan bog'liq normalar 4 barobarga ko'paytirilmoqda. Bu xalqimiz sog'lig'ini ishonchli muhofaza etish hamda onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi, albatta.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanida tashkil etilgan navbatdagi tadbirida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Zumrad Bekatova ishtirok etib, ana shular haqida gapirdi. – Endi Bosh Qomusimizda bunday o'zgarishlarning huquqiy asoslari yaratilayapti, – deydi deputat.

– Shuningdek, loyihada homiladorligi yoki yosh bolasi borligi ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi belgilanmoqdaki, bu shubhasiz, gender tengligi prinsiplariga qat'iy amal qilinishiga olib keladi.

## MAHALLA HAM KONSTITUTSIYA KAFOLATIDA

Fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini ta'minlash inson qadrini ulug'lash va xalqparvar davlat barpo etishning samarali yo'llaridan biridir.

Yangilanayotgan Konstitutsiyada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolar manfaatini, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etish belgilanmoqda.

– Bu mahallalarda aholi manfaatlaridan kelib chiqib, davlat bilan sheriklik asosida muammolarni hal etish, hududni har jihatdan rivojlantirish, samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi, – dedi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati A'zamjon To'laboyev qumqo'rg'onlik saylovchilari bilan bo'lgan uchrashuvda.

Ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimizdagi mahallalar soni 9 255 ta. Shundan 41 tasi shaharcha, 81 tasi qishloq, 164 tasi ovul, 8969 tasi esa mahalla fuqarolar yig'inlaridir.



**Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.**

**Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.**

76

-modda.

**Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.**

79

-modda.



Xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi to'laqonli faol ishtirokini ta'minlash natijasida 2030-yilga qadar boshqaruv lavozimlarida ishlovchi xotin-qizlar ulushi kamida 30 foizni tashkil etishi kutilyapti.



Bugun xotin-qizlar faolligini oshirish, gender tenglikni ta'minlash borasida islohotlar tobora izchillashib boryapti. Asosiysi, bu tushuncha Yangilanayotgan Konstitutsiyada ham o'z aksini topayotir. Xususan, 58-moddadagi "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" jumlasini: "Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi" tarzida o'zgartirilmoqda.

Sir emaski, gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjatlari qabul qilingan, 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlangan. Shuningdek, Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya, Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, davlatimiz tarixida ilk marotaba parlamentdagi xotin-qizlar 32 foizga yetgan va bu ko'rsatkich sabab, dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'rinni egallab turibmiz. Yana bir ma'lumot: boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetgan. Bu ko'rsatkichlar ham xotin-qizlarning faollashganlarini namoyon etmoqda.

Eng muhimi, bugunga kelib, xotin-qizlarning ta'lim olishlari, ilm-fan bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish davlatning birlamchi vazifasiga aylandi. Natijada, birgina 2022-yilda

oliy o'quv yurtlariga qabul qilingan talabalarning 49,9 foizini xotin-qizlar tashkil etdi.

Bosh Qomusimizga kiritilayotgan yuqoridagi qo'shimcha esa, ushbu ishlarining mantiqiy davomi bo'lmoqda. Ya'ni, davlat har jabhada erkaklar va ayollar tengligini ta'minlash kafolatini olmoqda, bu boradagi o'z rolini oshirmoqda.

Shu bilan birga, mazkur o'zgartirish xalqaro me'yor va standartlarga to'liq mos keladi hamda yurtimizda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirishga imkon beradi.

Ta'kidlash joizki, Bosh Qomusimizda ayol va erkaklarning teng huquqli ekanini belgilanayotgani bejiz emas. Bundan maqsad – yillar davomida mustahkamlangan zanjirlarni sindirishga, "ayol kishi uyda o'tirishi kerak", "ayollarga siyosatga aralashishni kim qo'yibdi", degan eskicha qarashlarni o'zgartirishga qaratilgandir. Mazkur normaning kiritilishi hamda xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi to'laqonli faol ishtirokini ta'minlash natijasida 2030-yilga qadar boshqaruv lavozimlarida ishlovchi xotin-qizlar ulushi kamida 30 foizni tashkil etishi kutilyapti. Eng avvalo, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirishga, ikkinchidan, parlament, hukumat, vazirliklar, hokimiyat ishlariga kengroq jalb etish imkoniyatini yaratadi.

Zulayho  
KAMOLXO'JAYEVA,  
partiyaning Toshkent  
shahar Kengashi raisi  
o'rinbosari

Yangi tahrirdagi  
Konstitutsiya

*O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.*

*Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi.*

-modda.

70

## FUQARONING XOHISH-IRODASI BOSH QOMUSIMIZDA AKS ETYAPTI

Tan olish kerak, garchi Bosh Qomusimiz shu kungacha 16 marta qayta tahrir qilingan bo'lsa-da, bu safargidek to'laqonli umumxalq muhokamasiga qo'yilmagan edi. Qayd etish joizki, bugungi konstitutsion islohotlar deyarli barcha soha va tizimlarni qamrab olgan. Xususan, yangilanayotgan Konstitutsiyaga yoshlarning davlat himoyasida ekanini tasdiqlovchi norma kiritilayotgani yoshlarning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, albatta.

Tan olish kerak, aholisining qariyb 60 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etayotgan mamlakatimizda yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda, Konstitutsiyamizda maktabgacha va maktab ta'limi, oliy ta'lim hamda ilm fanni qo'llab-quvvatlashning huquqiy kafolati ham yaratilayotganini ta'kidlash joiz. Yaqinda turli davlatlar konstitutsiyasiga oid manbalar bilan tanishib, qiziq bir ma'lumotga ko'zim tushdi. Dunyoda o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lmagan davlatlar ham bor ekan. Misol uchun, Buyuk Britaniya va Yangi Zelandiya qonunchilik rivojlangan demokratik davlatlar bo'lsa-da, yaxlit huquqiy hujjatga ega emas ekan. Buyuk Britaniyada konstitutsiyaviy huquq parlament qabul qiladigan qonunlarda aks etarkan. Shuningdek, Isroilda ham konstitutsiyaviy hujjat yo'q ekan. Qayd



etilishicha, mamlakatning huquqiy tizimi asosiy qonunlar, Mustaqillik deklaratsiyasi va boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslanarkan. O'qiganlarim va qiyoslaganlarimdan shunday xulosa qildimki, yurti, farzandlari taqdiriga befarq bo'lmagan har bir O'zbekiston fuqarosi 30 aprel kuni bo'lib o'tadigan umumxalq referendumida faol ishtirok etishi kerak. To'ng'ich farzandi talaba, keyingilari esa maktab o'quvchisi bo'lgan 4 nafar farzandning otasi sifatida men ham bu borada o'zim va farzandlarim taqdiriga daxldorligimni anglagan holda bu jarayonga befarq emasligimni aytmoqchiman.

Eliboy URALOV,  
Nizomiy nomidagi TDPU  
Boshlang'ich ta'lim pedagogika  
kafedrasini o'qituvchisi,  
partiya faoli

REFERENDUMDA FAOL  
ISHTIROK ETAYLIK!






Feruza JALILOVA,  
partiya Markaziy kengashi bo'lim boshlig'i

”

Bugun ayrim maktablarimizdagi ta'lim-tarbiya jarayoni ko'ngildagidek emas. O'quvchilarni kaltaklab, kurakda turmaydigan so'zlar bilan qarg'aydigan ba'zi bir o'qituvchilardan qanday tarbiya kutish mumkin?!

# A Y B N I

O'ZIMIZDAN QIDIRAYLIK...



**ugun yoshlarimizning yurish-turishi, kiyinish uslubi, hatto odob-axloqida G'arbning ta'siri sezilyapti, degan gaplar tez-tez quloqqa chalinyapti. Afsuski, bu haqiqat! Ko'pchilik yoshlarimizning hayot tarzi, hattoki fikrlashi ham g'arbona ekani bor gap.**

Ammo bunday noqislikka kim yoki qanday omillar sabab, degan savolning javoblari turlicha: kimdir global tarmoqning salbiy ta'siri desa, yana kimlardir «Bolaga eng avvalo, oilada, bog'chada, so'ngra ta'lim-tarbiyaning keyingi bosqichi - maktabda to'g'ri tarbiya berilishi kerak», deydi. Bugungi globallashuv jarayonida axborot texnologiyalari, ayniqsa, internet yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangani, global tarmoqning jamiyat hayotiga g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazayotgani haqiqat. Ammo tan olaylik, bunday holatlarning asosiy sabablaridan yana biri bu ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy jarayonlardir. Keling, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, shuningdek, boshlang'ich sinflarda tarbiya vositasi sifatida o'kaziladigan bayram tadbirlarini mohiyatan bir tahlil qilib ko'raylik. Bugun onalar o'rtasida bog'cha yoki maktabda o'kaziladigan biron bir bayram tadbirida qizchangizga qanday lobos kiydirasiz qabilda so'rovnomaga o'tkazilsa, ularning aksariyati, kelin ko'ylak, deya javob berishlari shubhasiz. Sababi, qandaydir yozilmagan qonunlariga muvofiq, qizaloqlarimiz bayram tadbirlarida albatta, oppoq kelin ko'ylaklarini kiyishadi va o'g'il bolalar bilan vals tushishadi. O'g'il bolalar esa qizaloqlar qo'lidan, belidan tutgan qo'liga qo'lib, yakunda ular qarshisida tiz cho'kadi...

Bolalarga mo'ljallangan tadbirlar, mashg'ulotlar, filmlar, hatto ular tinglaydigan qo'shiq, musiqa, multfilmlar ham tarbiya vositasi, o'yinchoqlar esa mehnat ko'nikmalarini shakllantirishi lozimligini e'tiborga olsak, bunday raqslar bolalarni nimaga o'rgatadi, degan o'rinni savol tug'iladi. Bugun onalar alla aytmay qo'yishgani, aksariyat zamonaviy oilalarning farzandlari xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosini, asrlar davomida shakllangan folklor materiallarini o'zida mujassam etgan allalarini emas, «Kolibelnie pesenki»ni tinglab voyaga yetayotgani hech kimga sir emas. Vaholanki, ko'hna va navqiron qo'shig'imiz - allalarimiz bolaning ruhiy va ma'naviy olamiga, tarbiyasiga ijobiy ta'sir etish, tafakkuri va nutqini rivojlantirish, bolalikdan o'zi yashayotgan

yurtning tarixi, an'analari, qadriyatlari, xususan, ona tili bilan tanishtirishda muhim vosita bo'lib qolgan. Komillik, vatanparvarlik, insonparvarlik, ezigulik, mehr-muhabbat kabi insoniy fazilatlar alla orqali go'dakning murg'ak qalbiga singadi, ong ostiga jo bo'lib, umri mobaynida unga hamroh bo'ladi. Ya'ni alla bolaning xulq-atvorini, ta'bir joiz bo'lsa, kelajagini ham belgilashga xizmat qiladi.

Biroq hayot realliklari ko'plab o'zbek oilalarida bu qadriyatning yo'qolib borayotganini ko'rsatmoqda. Qolaversa, o'tmishdagi alla matnlarining tahlili ayrim hollarda bugungacha yaratilgan xalq og'zaki ijodida tushkunlik ruhi ustuvorligini, ya'ni unda onalarning dardi, hasrati, ushalmagan orzulari, armonlari kuylanganini ko'rsatayapti. Bugungi allalar O'zbekistondagi yangi bir Uyg'onish - Uchinchi Renessans davrining ruhiga, shiddatiga mos farzand kelajagi bilan bog'liq buyuk maqsadlar, katta-katta orzular mujassam bo'lgan uxlatuvchi emas, uyg'otuvchi allalar yaratilishi, har bir o'zbek oilasida alla aytish an'anasining tiklanishi va ommalashtirilishi, bu bebaho merosimiz YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilishi lozim.

Ana shu jihatlarni inobatga olgan holda «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining «Ayollar qanoti» tashabbusi bilan ilk bor o'zbek zamonaviy shoirlarining uch avlodi qalamiga mansub alla matnlari jamlandi. Ularga kuy bastalanib, «Zamonaviy o'zbek allalari» turkumida disklar chiqarish ko'zda tutilmoqda. Toki, farzandlarimiz oilada ham, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham o'zbekona allalarimizni tinglab, orom olishsin...

«Maktablarda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi», degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasini rivojlantirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda.

Tan olish kerak, bugun ayrim maktablarimizdagi ta'lim-tarbiya jarayoni ko'ngildagidek emas. O'quvchilarni kaltaklab, kurakda turmaydigan so'zlar bilan qarg'aydigan ba'zi bir o'qituvchilardan qanday tarbiya kutish mumkin?! Farzandiga tanbeh bergani uchun o'qituvchini o'quvchilar ko'z o'ngida haqoratlayotgan ota-onadanchi? Ustozini behurmat qilayotgan, ularga hatto qo'l ko'tarayotgan o'quvchilar ana shunday tarbiyaning «achchiq mevasi» emasmi?!

Farzand eng avvalo, oilada tarbiyalanadi. Tarbiyaning keyingi bosqichi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, so'ngra maktabda davom etadi. Shunday ekan, har bir



fakultetlar joriy qilish belgilangan edi. Ammo mana ikki yildirki, qaror ijrosi ta'minlanmayapti. Vaholanki, bugungi globallashuv jarayonida ma'naviy tahdidlar yoshlar ongi, ruhiyati, tafakkuri va tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazayotgan bir sharoitda bog'cha va maktablarimiz bolani ma'lum muddatgagina ushlab turadigan maskan emas, tom ma'noda ta'lim-tarbiya o'chog'iga aylanishi kerak. Buning uchun esa eng avvalo, milliy tarbiya metodikasini yaratishimiz, bugungi kun talablariga javob beradigan bilimli, salohiyatli, dunyoqarashi keng, innovatsion g'oyalarga boy tarbiyachi kadrlarni tayyorlashimiz lozim. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablarida o'tiladigan bayram tadbirlari, musiqiy mashg'ulotlarda ayni paytdagidek birgina pianinoda emas, milliy musiqa cholg'ularidan ham keng foydalanishni yo'lga qo'ymog'imiz lozim. Zero, barkamol avlod tarbiyasida ilmu ma'rifat nechog'li muhim ahamiyat kasb etsa, musiqa va san'atning o'rni ham shunchalik muhim. O'quvchilar qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish maqsadida 2022-yil 2-fevralda mamlakatimiz rahbari tomonidan imzolangan «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorning qabul qilinishida ham ana shu jihatlari e'tiborga olinganiga shubha yo'q. Mazkur qarorning V-bandida umumta'lim maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari 2022 - 2024-yillarda 3 tadan milliy musiqa cholg'ulari bilan ta'minlanishi, o'quvchilarning milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy chalishni bilishlari majburiy etib belgilandi va bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatlariga (shahodatnoma) qayd kiritilishi ta'kidlandi. Xo'sh, bugun mazkur qaror ijrosi qanday ta'minlanayapti? Ana shu savolga oydinlik kiritish maqsadida partiyamiz «Deputat ayollar klubi» a'zolari tomonidan bolalar musiqa va san'at maktablarida o'rganishlar olib borildi. Jarayonda o'quvchilar qamrovi ko'pligi sababli qo'shimcha binolarga ehtiyoj borligi, musiqa va san'atga oid darsliklar, o'zbek bastakorlarining an'anaviy milliy notalari yetishmasligi, badiiy adabiyotlar kamligi, ko'plab cholg'u asboblarning yaroqsizligi, binolarning ta'mirlanish kabi bir qator kamchiliklar aniqlandi. Umumta'lim maktablarida ham qaror ijrosiga doir o'rganishlar o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Bir so'z bilan aytganda, nihoyatda muhim qaror ijrosi hozircha ko'ngildagidek emas.

Biz bugun O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yarataymiz. Binoning nechog'li mustahkam bo'lishi esa uning poydevoriga bog'liq.

bola hayoti, demakki, har bir oila hayoti bog'cha, maktab bilan chambarchas bog'liq. Zero, farzand tarbiyasi nafaqat uning ota-onasi, balki jamiyatning ertangi farovon hayoti kafolatidir.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Saylovidi dasturida asosiy e'tibori milliy tarbiya va ta'lim tizimini takomillashtirishga, bola tug'ilganidan to maktabni tugatgungacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan yagona tarbiya va ta'lim tizimini yaratishga, oila - bog'cha - maktabni bir tizimda birlashtirishga qaratilayotganidan ko'zlangan asosiy maqsad ham komil insonni tarbiyalashga hissa qo'shishdir.

Partiya tashabbusi va hukumatning tegishli qarori bilan Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyachi mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan

# «QIZ BOLANING YAXSHI TA'LIM OLISHI – OTA-ONANING ENG KATTA YAXSHILIGIDIR»

Gulhayo Ubaydullayeva – «El-yurt umidi» jamg'armasi stipendianti. Kolorado davlat universiteti (Colorado State University) umumiy matematika (General math) yo'nalishi talabasi. Gulhayo bilan «El-yurt umidi» jamg'armasi, AQSH universitetlari va Amerikadagi hayot tarzi haqida suhbatlashdik.



– «El-yurt umidi» jamg'armasi faoliyati haqida nima deya olasiz – jamg'armaga hujjat topshirish qiyin emasmi?

– «El-yurt umidi» jamg'armasi bu – o'zbek talabalarini dunyoning «Top-300» universitetlarida o'qitish tizimini yo'lga qo'ygan davlat dasturi sanaladi. Agar siz jamg'arma stipendianti bo'lsangiz, oliygohda o'qish xarajatlaridan tortib, yotoqxon, oziq-ovqat, yo'l chiptalari, kitoblar va boshqa ehtiyojlaringiz davlat tomonidan qoplab beriladi. Hujjat topshirishga kelsak, ya'ni dastlab siz o'qiydigan xorijdagi universitetdan o'qishga qabul qilinganligingizni tasdiqlovchi xat (acceptance letter) hamda o'zingiz yozgan inshoni «El-yurt umidi»ning rasmiy saytiga joylashtirish kerak bo'ladi. Insho o'zbek tilida yoziladi. Unda siz tahsil olmoqchi bo'lgan universitetingiz, erishgan yutuqlaringiz hamda O'zbekistonga qaytgandan keyin qanday ishlarni amalga oshirmoqchi ekanligingiz, maqsad va rejalaringiz batafsil yoritilishi zarur. Mening yo'nalishim matematika bo'lgani uchun shu sohada yangicha darsliklar yaratish g'oyasini ilgari surganman. Ya'ni, darsliklarda mavzular yanada qiziqarli va lo'nda tushuntirilishi uchun yangicha metodika kiritmoqchiman.

Hujjatlarimni topshirgan vaqtda ikkinchi bosqichda suhbat bo'lib o'tardi, lekin hozir yangi nizom tasdiqlangan. Unga ko'ra, siz suhbatdan oldin test sinovlarida ham qatnashasiz. Suhbat jarayonlariga bir oy davomida tayyorlanganman. Chunki 12 – 14 ta mutaxassis siz bilan individual tarzda mulotot qiladi, har tomondan yug'ilib keladigan savollar hujumiga tayyor bo'lishingiz lozim. Savollar tarix, huquq, ingliz yoki o'zbek tili bilan, shu bilan birga, yo'nalishingiz va o'qimoqchi bo'lgan universitetingiz haqida bo'lishi mumkin.

– Yuqorida aytib o'tgan g'oyangiz ustida ishlayapsizmi va davlat tomonidan bu loyihalarni amalga oshirish uchun ma'lum muhtalab belgilanganmi?

– Ha, ayni damda matematika darslaridagi barcha kitoblarni sotib olganman, ularning har birini sinchkovlik bilan ko'zdan kechirib chiqayman. Bu yerdagi darsliklar juda puxta ishlab chiqilgan, shu sababli siz o'qituvchi yoki professorning yordamisiz ham mavzularni bemalol o'zlashtira olasiz. Lekin hozircha maktab darsliklari bilan to'la tanishib chiqishga ulguranim yo'q, shunga qaramasdan, kelajakda Amerika maktablarining matematika darsliklari bilan ham tanishmoqchiman. Davlat tomonidan bu loyihalarni amalga oshirish uchun hech qanday muddat belgilanmagan.

Biroq O'zbekistonga qaytgach, o'z g'oyalarim asosida darsliklarni takomillashtirishga hissa qo'shmoqchiman.

– Xorijiy universitetlarning o'rtacha kontrakt narxi, xalqaro talabalar uchun ajratiladigan eng kam va eng ko'p grantlar miqdori qancha bo'lishi mumkin?

– Kontrakt miqdorlari eng kamida 26 ming AQSH dollardan 50 ming dollargacha bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, xorijlik talabalar 3 ming dollardan 28 ming dollargacha grant yutishlari mumkin. Bunda nomzodning maktabdagi baholari va xalqaro sertifikatlari inobatga olinadi. Kontrakt narxlarini esa universitetlarning o'zi belgilaydi. Misol uchun, men tahsil olayotgan universitetning kontrakti 26,840 AQSH dollar, menga ajratilgan grant esa 6 ming dollarni tashkil etadi. Bu oliygohimdagi chet ellik talabalar uchun ajratiladigan grant, qolgan grantlarni o'qish davomida qo'lga kiritish mumkin. Bu yerda ko'plab grantlar Amerika fuqarolari uchun ajratilgan. Birinchi yarim yillikni yakunlaganimdan so'ng yana bir grantga hujjat topshirib ko'rmoqchiman. Bu semestrning necha baho bilan yakunlanganiga bog'liq. Amerikada eng yuqori ball 4, grant yutish uchun esa kamida 3,8 ball to'plashingiz kerak.

– Amerika va O'zbekiston universitetlarining bir-biridan farqlari nimada?

– Birinchidan, Amerikada kirish imtihonlari onlayn shaklda bo'lib o'tadi va u qadar qiyin bo'lmaydi. Buning uchun maktabni tamomlagan baholaringiz yoki sertifikatlaringizning o'zi kifoya. Ayrim oliy ta'lim muassasalariga esa kirish imtihonlari ma'lum bir ixtisoslik fanidan suhbat asosida bo'lishi ham mumkin. Ikkinchidan, AQSH universitetlari uchun hujjat topshirish jarayonlari yil davomida 3 marta ochiladi va siz o'qishni qaysi semestrni boshlashingizni universitet bilan kelishgan holda tanlashingiz mumkin. Uchinchidan, bu yerda talabalar dars beruvchi professorlarni va fanlarni o'zlari tanlaydilar, dars soatlarini ham o'zlari rejalashtirishlari mumkin. O'zbekistonda esa ma'lum bir jadval asosida darslar olib boriladi. Shuningdek, AQSHda talabalardan imtihonda ham, taqdimot qilayotganida ham, o'qish davomida ham, hech qachon maxsus forma kiyish talab qilinmaydi.

– Amerikada ham bizdagidek talabalarni turli bayram va tadbirlarga jalb etish hollari kuzatiladimi?

– Amerika universitetlarida tadbirlar, asosan, talabalar tomonidan tashkil etiladi, farqli jihat, talabalar darslardan qutulish yoki majburligidan

emas, asosan madaniy hordiq olish uchun ishtirok etishadi. Ikkinchidan, bayram va tadbirlardan nafaqat moddiy, balki ma'naviy manfaat ham ko'zlanadi. Tomoshabinlarga turli sovg'alar, futbolka, bosh kiyim yoki bepul ovqatlar ulashiladi. Tadbirlar xuddi shoudek o'tkaziladi.

– Bizning jamiyatimizda, ko'pincha, qiz bolaning otanasidan uzoqda, ayniqsa, chet elda ta'lim olishi u qadar yoqlanmaydi. Bugun atrofingizda ham shunday fikrli insonlar bormi? Ularga nima degan bo'lar edingiz?

– Qiz bolaning yaxshi ta'lim olishini ta'minlash ota-onaning o'z qiziga qilgan eng katta yaxshiligidir, deb o'ylayman.

Men tahsil olayotgan universitetning kontrakti 26,840 dollar, menga ajratilgan grant esa 6 ming dollarni tashkil etadi. Bu oliygohimdagi chet ellik talabalar uchun ajratiladigan grant, qolgan grantlarni o'qish davomida qo'lga kiritish mumkin.

Bu yerga kelishimdan oldin ham «Ota-onang ruxsat berdimi?», «Ota-onang qanday qilib rozi bo'ldi?», «Ota-onang nima sababdan rozi bo'ldi?» kabi savollar juda ko'p berilgan. Shuni ayta olamanki, qiz bola chet elga borib qandaydir qo'rqinchli hayotga emas, universitet muhitiga qo'shiladi, dunyo ko'radi, ilm o'rganadi, dunyoqarashi kengayadi. Bundan tashqari, bu yerda har bir din va millat vakiliga, ularning qadriyatlariga hurmat bilan qaraladi. Mening ota-onam yoshligimdan chet elda o'qishimni istashgan, «El-yurt umidi» jamg'armasiga hujjat topshirishimni ham qo'llab-quvvatlashgan. Men bilan birga stipendiya tanlovda g'olib bo'lgan bir qizning ota-onasi xorijda o'qishiga qarshilik qilishgandi. Aslida esa, bu jamg'arma stipendianti bo'lish qanchalik baxt ekanligini tanlovda bir necha bor ishtirok etib ham o'ta olmayotganlar juda yaxshi bilishadi. Hozir o'sha qiz O'zbekistonda o'qishini davom ettirmoqda. Qiz bola bo'lajak ona, kuni kelib, farzandlariga chiroyli tarbiya bera oladigan oqila, olima ayol bo'lsa, nimasi yomon? Buning uchun u, bir javdal asosida darslar olib boriladi. Shuningdek, AQSHda talabalardan imtihonda ham, taqdimot qilayotganida ham, o'qish davomida ham, hech qachon maxsus forma kiyish talab qilinmaydi.

– Amerikaliklar xonadonlariga ham borib turasizlarmi? U yerlarda sizlarni ko'proq qanday davralarga taklif qilishadi.

– Amerikaga kelganimga 4 oy bo'ldi, shu vaqt davomida ikki marta amerikaliklar xonadonida bo'ldim. Universitetdagi tahsil jarayonida 77 yoshli mister David ismli inson bilan tanishib qoldim. U mening elektron phtamni olib qoldi, keyinroq

uyiga mehmonga taklif qildi. Oila a'zolari, farzandlari juda yaxshi insonlar ekan, men va xitoylik dugonamni ochiq chehra bilan kutib olishdi. Biz hammamiz bir dasturxonada ovqatlanidik. Taomga ko'l uzatishdan avval Allohning zikrlarini tilga oldim. Ularning dini qanday ekanligini bilmayman, lekin ular ham ovqatlanishdan oldin duo qilishar ekan. Ikkinchi marta borganimda esa yana bir boshqa amerikalik oila ham mehmonga kelgan ekan. Qiziqarlisi, ular Markaziy Osiyoning ko'plab mamlakatlarida, xususan, O'zbekistonda ham bo'lishgan ekan. Dunyoning boshqa bir mintaqasida, boshqa bir davlat vakilidan, o'zga bir tilda o'z vatanning haqida iliq

fikrlar eshitish juda ham ajoyib ekan. Ana shu lahzalarda men o'zimni nihoyatda baxtli his etdim. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, AQSH oilalari ham mehmondo'st va fikr almashishni yaxshi ko'rishadi, qo'ldan kelgancha yordam berishadi.

– Oziq-ovqatlar haqida nima deya olasiz, Amerikada musulmonlar uchun halol yeguliklar bormi? Ba'zilar «bunday ovqatlar qimmat bo'ladi» deyishadi. Bunga qanday munosabat bildirasiz?

– To'g'ri, O'zbekiston fuqarosi uchun bu yerdagi narxlar qimmat tuyulishi mumkin. Lekin Amerika iqtisodiyotidan kelib chiqadigan bo'lsak, narxlar u qadar qimmat emas. Halol ovqatlanish esa, har bir chet elga chiqayotgan musulmondan alohida hushyorlik talab qiladi. Universitet oshxonasida islom dini vakillari uchun alohida burchak bor, u yerda tayyorlangan ovqatlarni bemalol iste'mol qilish mumkin. Bundan tashqari, Amerikada musulmonlar uchun lozim bo'lgan restoran va do'konlarni ham bemalol topasiz. Men bu yerda ko'pincha arab millati vakillari do'konlari mahsulotlaridan foydalanaman, narxlari ham hamyonbop.



Umida UMAROVA  
suhbatlashdi.

1960-yillarda bu davlatdagi mahbuslar soni shimoliy Yevroning boshqa mamlakatlariga nisbatan 4 barobar ko'p bo'lgani, ruhiy xastalikka chalingan fuqarolari esa jami aholining 0,4 foizini tashkil etgan...

“ Yaqinda tengdoshlarimizning do'ppi kiyishga bo'lgan munosabatini bilish maqsadida so'rovnomma o'tkazdik. Kimdir do'ppi kiyish azadorlik belgisi desa, boshqasi yoshi ulg'aygach, albatta kiyishini aytdi. Ko'nglimizni og'ritgani, do'ppi kiyishni kulguli deb hisoblaydiganlar ham bor ekan oramizda.

“ Axir bizni dunyoga tanitgan milliy adrasu atlaslar, zarbop to'nu do'ppilarimiz emasmi? Xususan, o'zbek do'ppisi millatimiz fenomeni ramzi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu o'rinda bu borada eshitgan bir rivoyat yodimga tushdi. Qadimda bir yurtida vabo tarqalib barcha odamlar nobud bo'la boshlabdi. Podshoh kim bu dardning davosini topsa, boshidan oltin sochaman deb e'lon qilibdi. Shunda bir mo'ysafid chol tabibga bir hovuch qalampirni keltiribdi va undan talqon yasab, bemorlarga berishni aytibdi. Oradan biroz muddat o'tib, yanchilgan qalampirni taomlariga, choylariga qo'shib iste'mol qilgan bemorlar tuzala boshlabdi. Bundan mamnun bo'lgan hukmdor dono cholga bir qancha zebu-zar beribdi va minnatdorlik belgisi sifatida cholning bosh kiyimiga qalampir tasvirini tushirib berishlarini buyuribdi. Shu tariqa bu tasvir tushirilgan, bosh kiyimlarni kiyish urfga aylanibdi.

Ba'zan ko'cha-ko'ya sochlarini allambalo


## AVLODGA TAALLUQLI GAPLAR

turmaklab, yevropacha bosh kiyim kiygan tengdoshlarimni ko'rib ajablanaman. Nahotki, o'zimizning milliy bosh kiyimimiz bo'la turib, g'arb modasiga shu qadar mukkasidan ketish mumkin bo'lsa...

To'g'ri, dunyoviy davlatda yashayapmiz. Ammo o'zligini asrash, milliyigimizni u yoki bu shaklda targ'ib qilish u qadar ham mushkul vazifa emasku. Muxtasar aytganda, bugungi texnika asrida biz yoshlar mutaxassislar ta'bir bilan aytganda "X" va "Y" (ya'ni, keksa va o'rta) avlod vakillarining ayrim qarashlarini qabul qilmasligimiz mumkin. Ammo milliy qadriyatlarini e'zozlashga kelganda ulardan o'rnak oladigan jihatharimiz ko'p. Axir do'ppi o'tmishda ham, hozir ham millatimiz fenomeni bo'lgan. Kelajakda qanday darajada bo'lishi esa albatta, bizga ya'ni, "Z" avlodning bu boradagi qarashlariga bog'liq. Ha, aytgancha, do'ppi kiyishni kulguli deb hisoblaydiganlar uchun Erkin Vohidovning ushbu satrlarini eslatishni joiz deb bildim:

...Qayga bormay, boshda do'ppim,  
G'oz yurarman gerdayib,  
Olam uzra nomi ketgan  
O'zbekiston, o'zbekim...

Siz nima deysiz tengdoshim?



Ozodbek Po'latov  
1-bosqich talabasi

Mutolaa

## BIZ HAM FINLARDAN QOLISHMAYMIZ, FAQAT...



Finlandiyada bir necha tilga tarjima qilingan "Kalevala" milliy eposidan keyin ikkinchi o'rinda turadigan "Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi" kitobini o'qib chiqdim. Unda soliq qonunchiligi, davlatning gullab-yashnashi sirlari, o'zini o'zi boshqarish, gender tenglik, bepul oliy ta'lim, 100 000 ta kuchli jamoat tashkilotlari, koalitsiya hukumatlari va qonun ustuvorligi kabi masalalar mohirona yoritilgan.

Mutolaa jarayonida finlandiyaliklarning bir-birlariga yordam berish, keksalar holidan xabar olish kabi odatlarini milliy qadriyatlarimiz bilan taqqosladim. Demak, insoniy tuyg'ular millat ham, makon ham tanlamas ekan.

Kitobda 1960-yillarda bu davlatdagi mahbuslar soni shimoliy Yevroning boshqa mamlakatlariga nisbatan 4 barobar ko'p bo'lgani, ruhiy xastalikka chalingan fuqarolari esa jami aholining 0,4 foizini tashkil etib, Irlandiya va Shvetsiyadan keyingi o'rinni egallagani, ichkilik sabab yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar bo'yicha Daniyani ham ortda qoldirgani qayd etilgan. O'rinli savol tug'iladi. Shunday salbiy ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchi mamlakatlar qatorida bo'lgan Finlandiya bugungi darajaga qanday erishdi? Ma'lumki, bugun ko'plab mamlakatlar fin tajribasi, xususan, finlarning ta'lim tizimidagi samarali metodlardan foydalanmoqdalar. Jumladan, biz ham. Yuqoridagi savolga kelsak, birinchidan, Finlandiyada ayollarning jamiyatdagi ishtiroki, ayniqsa, siyosiy faolligi qo'llab-quvvatlangan. Keyin yoshlarning

ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Aniqrog'i, mamlakatda ta'limga sarmoyalar kiritishda eng samarali loyihalar ishlab chiqilgan. Darvoqe, fin hukumati talabalar uchun turar joy masalasini ham, unga yechimni ham innovatsion tarzda hal qilgan va buni mamlakatning eng sara 100 ta ijtimoiy innovatsiyalari qatoriga kiritgan. Yangi qurilgan talabalar uyi peshtoqiga esa quyidagi so'zlar bitilgan ekan: "Vatanning o'z umidiga sovg'asi".

Bizda ham davlatimiz tomonidan ijtimoiy muammolarga yechim topish, aholi farovonligini ta'minlash borasida turli innovatsion loyihalar hayotga tatbiq etilayotir. Yoshlarning sifatli ta'lim olishlari, kasb-hunar egallashlari, sog'lom turmush tarziga odatlanishlari uchun ham qulay sharoit yaratishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilyapti. Kitobning so'nggi sahifalarini o'qir ekanman, shunday xulosaga keldim: nafaqat finlarning, balki bizning ham yoshlarga rag'bat berish, Vatandarparvarligini oshirishga qaratilgan loyihalarni qo'llash bo'yicha maqtanadigan jihatharimiz ko'p. Ammo finlardagidek emas, hali.

Xullas, tengdoshlarimga ushbu kitobni tavsiya qilardim. Dunyo tezlik bilan o'zgarmoqda. Zotan, kelajak tomonidan biz uchun tayyorlanayotgan yangi masalalarni qanday yengishimiz mumkinligini o'rganishimiz uchun shunday kitoblarni o'qishimiz shart!

Zarina AHMEDOVA,  
1-bosqich talabasi

Ushbu qo'shsahifada tahririyatimizda amaliyot o'tayotgan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabalarining ijod namunalari joy oldi. Bu kimningdir ilk, kimningdir navbatdagi maqolasi bo'lishi mumkin. Muhimi, ilk qadamni tashlab olish. Qolgan o'qish, izlanish va o'z ustida ishlash orqali muvaffaqiyatli davom etaveradi. Shu asosda amaliyot jarayonida bo'lgan boshqa talabalarni ham ijodiy faollikka chorlab qolamiz.

Hakim  
SATTORIY

Poytaxtimiz ko'rkiga ko'rk bag'ishlab turgan Temuriylar tarixi davlat muzeyining barpo bo'lishi ham ulkan tarixning bir sahifasi.

## 1996-yil.

"Amir Temur yili" deb e'lon qilingan, endigina tanlangan yo'ning shakl-shamoyili ayon bo'lib borayotgan bir palla. Ana shunday tumanli, tahlikali damlarda buyuk ajdodlarimizdan birining ramz qilib tanlanishi millatni uyg'otish, birlashtirish borasida butunlay to'g'ri yondashuv bo'lganini vaqt tasdiqladi. U paytlar boq yer osti zaxiralari hali siriligicha turar, shu tufayli bu boy o'lkaga qiziqish ham ma'lum doiralardagina ma'lum va mavjud edi. O'sha izlanish yillarida biror o'zini eplab olgan, salohiyatiga ishongan davlat yosh O'zbekistonni qo'llab-quvvatlab yuborishga unchalik ishqiboz emas edi. Davlat o'z boshiga yoqqan qorni o'zi kurashi – mustaqillik shamoyili o'zi tanlashi lozim edi. Shu yo'sinda ozod yurt mardumlari qalbida hurlik tuyg'usini uyg'otishda ancha sirli bo'lgan va sho'ro ta'qiblariga uchragan zotning xotirasiga hurmat bajo qilish, shaxsini ulug'lash, aslida, yo'l xaritasini jamoatchilikka e'lon qilish maqsadi ko'zlangandi. Ana shunday alg'ov-dalg'ovli kunlarda "Biz Temurbekning vorislarimiz!" deyish dunyo ahlini hushyor torttirishi aniq edi. Bir tomondan ana shunday yukni yelkaga olish, ikkinchi yoqdan Sohibqiron Amir Temur nomini sharaflashni davlat darajasida kun tartibiga olib chiqishning o'zi katta jasorat edi.

Shunday purviqor kunlarning birida davlat rahbari muzey haqida gapirib qoldi. Hali ozodlik, mustaqillik taftini u qadar anglay olmagun xalq bu

gapni ham shunchaki tadbir sifatida qabul qildi (oyaylik, Lenin nomidagi metro bekati birinchi marta "Mustaqillik maydoni bekati" deb e'lon qilingan 1991-yil 8-noyabr kunida, bu xitobni ilk bor eshitganlar elektr toki ta'sirini sezgandek bo'lishgandi, jumladan, men ham). O'sha shavkatli kunlarda atoqli shoir Abdulla Oripov bilan suhbatlashib qoldik. Aniq esimda, mashvarat o'sha paytdagi "Oktyabr inqilobi" xiyobonidagi "Start" kafesida bo'ldi. Bugun ochiq e'tirof etish kerak, gap muzey haqida ketganda, shu yemakxona qayta jihozlanib, tomoshagohga aylantirilsa kerak, degan mulohazaga borganmiz. Uyg'onayotgan, shukronaga to'la zehnimizga ana shu masshtab joylasha olgan, xolos, bundan ulkanini hatto tasavvur ham qilmaganmiz. Bizga davlatimizning salohiyati ham, istiqboldagi rejalarining bo'y-basti ham u qadar aniq ko'rinmasdi. Qolaversa, tasavvurlarimiz ancha cheklangan edi.

Oradan ko'p o'tmay, garchi hali qish chiqmagan, qorli-qirovli kunlar tugamagan bo'lsa-da, xiyobon hududidan tashqarida, bizning tasavvurimizni ag'dar-to'ntar qilib tashlaydigan darajada keng ko'lam bilan qurilish ishlari boshlandi. Qudratli texnikalar bino tag-zaminini kovlab, metall armaturalar ko'kka bo'y cho'za boshlagach, qurilajak imoratning salobati taxayyulimizda yorisha boshladi. Gapning indallosini aytganda, muzeyning hozirgi binosidek o'tmish va zamonaviylikni o'zida mujassamlashtirgan muhtasham bino paydo bo'lishi xayolimizdan

ham o'tmagandi. Sho'ro zamonining gurgut qutisidek qirrador imoratlariga o'rganib qolgan zehnimiz tomi gumbazli, aylana shakldagi, devorlariga arab imlosi zeb berib turgan mayolikalar bilan bezangan, o'z vaqtida havo aylanish, sovutish uskunalarini jihozlangan, zohiran moziy suratini ifodalagan, botinan esa zamonaviy siyrat kashf etgan latif binoning suratini gavalantirishga o'jiz edi.

Azbaroyi ish joyimiy yaqin bo'lganidan qurilish maydoniga tez-tez borib turardik. Bino qovurg'asini tashkil qilishi kerak bo'lgan, qizilga bo'yalgan metall karkaslar bir-biriga payvandlanib, bino shamoyili yuksalib borgan sari dilga surur bag'ishlardi. Qo'l yetgudek joyda Sohibqiron bobomizning purviqor haykali, endi esa "uyi" qurilayapti! Hamkasblardan biri ma'noli jilmayib "Bobongizni ham Toshkentga olib kelib oldingiz" degandi, o'shanda. Meni esa ham hayrat, ham quvonch chulg'ab olgandi. Axir yer yuzidan va odamzod xotirasidan supurib tashlanishga mahkum etilgan shonli tarix ko'z o'ngimizda bo'y yuksaltirayotgan edi. Mustaqillik xuddi shu emasi? Bu ulkan ko'tarilishni tushuntirish uchun soatlab va'z o'qish yoki TV ekranini yarim kunlab band qilish shart emas, mana shu bunyodkorlikning mohiyati mustaqillikni, istiqlolni istiqbolni aniq tushuntirib turibdi-ku!

Muzey juda qisqa muddatda qurilib, mehmonlarga bag'rini ochdi. 14-martda qaror chiqqan bo'lsa, 18-oktyabrda ochilish marosimi bo'ldi. "Sohibqiron



„Sharqona miniatyura san'ati namunalariga o'zgaacha jilo berish maqsadida 20 kilogramm oltin suvi ishlatilgan. Mashhur naqqosh Abdirahim Umaroo yetakehiligidagi "Usto" birlashmasining hunarmandlari bor san'atlarini namoyish etishgan.“

yulduzi" gazetasi tashkil qilinib, uning ilk soni shu tarixiy voqeaga bag'ishlandi. Nahorda dastlab yig'ilish, so'ng milliy udumlarimizga mos ravishda osh tortildi. Mehmonlar dasturxonidan turib ketayotganda quyosh ufqdan endi bosh ko'tarib, zarrin nurlarini socha boshlagan edi. Chunki mamlakat rahbarining ish tartibi tig'iz, shu kuni Samarqand va Shahrisabzda ham haykal ochilish tadbirlari bo'lib o'tishi lozim edi. Qanday shukuhli kunlarga yetgandiga, bir kunda uch shaharda to'y, uch joyda Sohibqiron haykalining barpo etilishi...

Hayot issiq-sovuq, past-baland bo'lib davom etaverar, ammo o'sha bir kunning shukuhini, fayzini har qanday voqelik xira torttira olmaydi!

Muzey binosining tarxi, shubhasiz, Davlat rahbarining doimiy nazorati ostida shakllantirilgan edi. Qat'iy talab – imorat o'sha kunlar obro'si va shukuhiga mos bo'lishi shart. Bir necha muqobil variantlar: tomi aylana shaklida, tik chiqqan piramida ko'rinishida ham chizilgan edi. Gumbaz usuliga to'xtalish ham oson kechmagan, ko'plar uni eskirgan, deb rad etgan. Lekin ajdodlar merosiga e'tibor hissi g'olib kelgan. Ichki ornamentlarini tayyorlashda Toshkentdagi chinni, keramika, "Mikond" zavodlari faol qatnashgan. Imoratda marmar, sopol, g'isht, gilmo'ya kabi qadimgi qurilish ashyolari bilan birga sement, beton, temir singari hozirgi zamon vositalaridan ham keng foydalanilgan.

Albatta, bino tarxi jahonning eng nodir me'moriy yodgorliklaridan ulgi olib yaratilgan edi. Ayniqsa, Agradagi Toj Mahal

obidasining go'zalligi, betimsolligi yorqin namuna edi. Keyinchalik o'lchamlar hisoblab chiqilganda, ko'p kesmalar shu oliy imorat bilan hamohang ekanligi ma'lum bo'lib qoldi (negaki, san'at yo'nalishi, ruh, qolaversa, did ham mushtarak-da). Muzei gumbazining ichki kesimi 23 metr, Toj Mahalda esa 22 metr. Yerdan gumbaz uchigacha 30 metr, Toj Mahalning ichki gumbazi balandligi 32 metr. Agradagi imoratning umumiy balandligi 107 metr bo'lib, gumbaz ichki tomondan ham alohida bo'lingan. Toj Mahal sakkiz qirrali tag-zaminining tomonlari 70 metr, muzeining kesimi ham shuncha. Toj Mahal asosiy imorati balandligi 25 metr, muzei imoratining balandligi 18 metr.

Muzei binosi uch qavat bo'lib, asosiy kirish joyida silindrsimon ayvon qavatlarni tutashirib turadi. Ayvonning markazidagi tosh lavhga Usmon Qur'oni nusxasi qo'yilgan. Shiftdan osilib turgan 106 ming yoritgichli, bo'yi 8,5 metrlik qandil butun binoning ko'rki. Devor sirtiga mahobatli suratlar ishlangan. Albatta, suratlarda Sohibqironning faoliyati diqqat markazida bo'lgan. Devoriy surat uch qismdan iborat. Uning birinchi bo'lagida Temurbekning bolalik, o'smirlik, ulg'ayish davri aks etgan: yorqin yulduz (bu bobomizning baxtli yulduz burjida tug'ilganiga ishora), baxt va iqbol ramzi – Humo qushi tasviri va bolaligidan yuksak parvozlarga shaylanganiga ishora sifatida lochin surati. Ikkinchi qism bunyodkorlik faoliyatini yoritishga bag'ishlangan. Unda Sohibqiron qurdirgan Shahrisabzdagi Oqsaroy va Samarqanddagi Bibixonim masjidi ko'rinishlari aks etgan. Uchinchi qism – abadiylik, deb atalgan. Unda so'nggi maskan – Go'ri Amir maqbarasining surati berilgan.


Sharqona miniatura san'ati namunalari o'zgacha jilo berish maqsadida 20 kilogramm oltin suvi ishlatilgan. Mashhur naqqosh Abdirahim Umarov yetakchiligidagi "Usto" birlashmasining hunarmandlari bor san'atlarini namoyish etishgan. Devorlarga zarqalam hattot Habibulla Solih Qur'on oyatlaridan arab imlosida naqsh bitilgan. Shuningdek, Tuzuklardan ham ibratli hikmatlar darj etilgan. Umuman, muzei chinakamiga milliy me'morchiligimizning eng so'nggi yutuqlarini o'zida

mujassamlashtirgan, deyish mumkin.

Muzei o'tgan yillar davomida keng qamrovli madaniy-ma'rifiy markazga aylandi. Ashyolari soni ortib bordi, hozir ular 10 mingni chamalab qoldi. Yangi galereyalar tashkil etildi. Jumladan, Temuriy shahzodalarning suratlari taniqli rassomlarimiz tomonidan moybo'yoqda aks ettirilib, alohida bo'limga joylashtirildi. Turli ilmiy anjumanlar, xalqaro simpoziumlar uchun ham eng o'ng'ay joy shu yerdagi muhtasham zallardir. Tomoshabinlarning qadami uzilmaydi. Mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy davlat rahbarlari ham muzeyda bo'lishni juda xohlaydilar.

Mazkur moziy nigorxonasining mavqei ilmiy doiralarda yaxshi ma'lum. Unda saqlanayotgan qimmatli qo'lyozmalar, nodir ashyolar ko'plab ilmiy tadqiqotlarga mavzu bo'lmoqda, yana quvonarli tomoni – ularning qatori to'lishib borayotir. Shu paytga qadar Fransiya, Germaniya, Avstraliya, Hindiston kabi davlatlarda o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmalarida noyob eksponatlar namoyish etildi. Fransiya va Niderlandiyada Amir Temur va Temuriylar davriga oid fotoko'rgazma o'tkazildi. Muzei sayti (temurid.uz) o'zbek, rus, ingliz tillarida ishlab turibdi. Yoshlar ijtimoiy harakati bilan hamkorlikda muzeining to'liq virtual ko'rinishi yaratildi. Unda tomoshagoh zallari bo'yab sayohatga chiqish mumkin va eksponatlar zamonaviy 3D shaklda namoyon bo'ladi.

Poytaxtimiz husniga uzukka ko'z qo'ygandek yarashib turgan bino Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar shavkatini zamonadoshlarimizga hikoya qilib beruvchi eng ko'rkam darsxonaga aylandi. Har kuni uning muhtasham zallariga yuzlab kishilar qadam qo'yadi. Ularning ko'pchiligi – ertamiz egalari bo'lgan maktab o'quvchilari, talabalar, yosh mutaxassislar. Balki ana shu tashrif asnosida ularning qalbida o'z millatidan, uning shonli tarixidan faxrlanish hislari bosh ko'tarar, shunchaki tomoshabin bo'lib kelib, yurt egasidek bo'lib qaytayotgandir. Har holda, bu qutlug' maskanda bo'lish odamni yuksak tuyg'ularga oshno qilishi shubhasiz. Ana shu ruhiy quvvatning tobora to'lishib va yuksalib borishini dildan istaymiz.



D O T O Q U


## «O'ZBEKNEFTGAZ» AKSIYALARI SOTUVGA CHIQARILADI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2023-yilda eng yirik kompaniya va tijorat banklarining aksiyalari aholi uchun ochiq va shaffof savdoga chiqarilishi ma'lum qilingan edi.**

Davlat rahbarining 2023-yil 24-martdagi «Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-102-sonli qaroriga muvofiq, 40 ta korxonalar, jumladan «O'zbekneftgaz» AJning ham aksiya paketlari «bitta aksiya – bitta lot» tamoyili asosida mahalliy fond bozorida xalq IPOsini o'tkazish tartibida ommaviy savdolar orqali xususiyashtiriladigan bo'ldi. Qarorga muvofiq «O'zbekneftgaz» AJning 2 foizgacha aksiyalari savdoga chiqariladi va aholiga «E-auksion» elektron savdo platformasi, shu jumladan, mobil ilovasi orqali savdoda ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Ayni paytda esa aksiyalarni fond bozoriga joylashtirishga tayyorgarlik ko'rish jarayoniga IPO o'tkazishga xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar (anderrayter, konsultant va boshqalar) jalb etila boshlandi. Jamiyat imkoniyatlarini aholi va tadbirkorlar o'rtasida keng targ'ib qilish, jozibadorligini yoritish maqsadida ommaviy axborot vositalarida muntazam ma'lumotlar berish va har bir viloyatda «Road show» o'tkazilishi rejalashtirilmoqda. Bunda fuqarolar IPO bo'yicha o'tkazilayotgan tadbirlar

to'g'risida «O'zbekneftgaz» AJning rasmiy veb-sayti, ommaviy axborot vositalari va boshqa manbalari orqali xabardor qilib boriladi. Ma'lumot uchun shuni aytish joizki, bugun «O'zbekneftgaz» AJ 50 dan ortiq ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni, shu jumladan 13 ta qo'shma korxonalar, uglevodorodlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha 10 ta ishlab chiqarish quvvatlarini, shuningdek, bir qator muvofiqashtiriladigan noishlab chiqarish va ilmiy–texnik bloklarni birlashtirgan zamonaviy vertikal integratsiyalashgan kompaniya hisoblanadi. Hukumatning ushbu chorasi esa kompaniya faoliyatining shaffofligini oshirish, energetika sohasini liberalashtirish va ushbu sohaga aholi sarmoyalarini jalb etishni osonlashtirishga qaratilgan intilishga dalil bo'lishi mumkin. Bu shubhasiz, nafaqat «O'zbekneftgaz» AJga, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qayd etish joizki, «O'zbekneftgaz»da o'z faoliyatini kengaytirish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bo'yicha ulkan va tizimli rejalar bor. Bu esa katta kapital qo'yimlarini talab etadi. Zero, kompaniya kapital bozoriga kirib, keng doiradagi sarmoyadorlardan mablag' jalb eta oladi. Bu ayni paytda nafaqat loyihalarni moliyalashtirish, balki aholiga ham mamlakatning sanoat va energetika sohasini rivojlantirishda ishtirok etib, daromad olish imkoniyatini beradi.

«O'zbekneftgaz»  
AJ Matbuot xizmati



“Silk Road Samarkand”:

## KALQARO SAYYOHLIK SALOHİYATINI OSHIRISHGA XIZMAT QILMOQDA

Samarqand viloyati Samarqand tumanidagi eshakk eshish kanali atrofida 260 gektar maydonda barpo etilgan «Silk Road Samarkand» xalqaro sayyohlik markazi milliy va zamonaviy bunyodkorlikning eng go'zal namunasi hisoblanadi.

Ushbu majmua eshakk eshish kanalining shimolida kongress markazi, 8 ta hashamatli mehmonxona, ekoqishloq, «Abadiy shahar» tarixiy-etnografik majmuasi va savdo maydonchalaridan iborat. «Wellness Park» majmuasi bosh menejeri Tomas Nollning ta'kidlashicha, ushbu hududda joylashgan mehmonxonalarida nafaqat dam olish, balki sog'lomlashtirishga qaratilgan bilan yanada ahamiyatlidir.

«Wellness Park» majmuasi o'zida to'rtta mehmonxonani jamlaydi. Ularning har birida sog'lomlashtirish bo'limlari mavjud. «Afrosiyob» mehmonxonasiga to'xtaladigan bo'lsak, unda asosan insonning umumiy salomatligi bo'yicha muolaja qilinadi. «So'g'd»da ortiqcha vazndan xolos bo'lish, «Baktriy»da fizioterapiya va «Turon»da o'pka kasalligi muolajasiga mo'ljallangan. «Wellness Park» majmuasining asosan xalqaro turizm uchun hissasi katta bo'lyapti. Hozirgi kunda majmuaning yaxshi faoliyat yuritayotganligi sababli xalqaro sayyohlik 60 foizga o'sgan. Bu yerning ekotuzilmasi juda ajoyib bo'lib, uning atrofidagi 30 mingdan ortiq daraxtlar ekilgan havoning yanada toza bo'lishiga muhim omil bo'lmoqda, – dedi janob Tomas Noll.

Ushbu hududda qad rostlagan yana bir inshoot, bu Kongress markazidir. U sharqona uslubda katta panoramali derazalar bilan qurilgan. Zamonaviy asbob-uskunalar, taqdimotlar uchun mo'ljallangan.

«Grand Hall»ning umumiy maydoni 3709 kvadrat metrni tashkil etadi. U 3 ming o'rinli bo'lib, besh zaldan iborat. Ularning har

birida ikkita ekran bor. Ushbu ekranlar orqali ishtirokchilar tashkil etilayotgan tadbirlardagi jarayonlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi, – dedi Kongress markazi direktori o'rinbosari Akmal Nazirov.

«Abadiy shahar» ushbu majmuaning asosiy e'tiborli manzili bo'lib, unda milliy me'morchilik, hunarmandchilik va ustakorlik an'analari yanada yaqqol namoyon bo'lgan.

«Abadiy shahar» majmuasi menga juda yoqdi, – dedi o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashgan «Mahalla» radiokanali muxbiri Dildora Matyoqubova. – Negaki, Samarqanddagi ushbu majmualar haqida ko'p va xo'p yozishdi. Shu sababli, bu yerga kelish va uni tomosha qilish niyatida edim. Yaqinda «Silk Road Samarkand» xalqaro sayyohlik markazi tomonidan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur uyushtirildi va unda men ham qatnashdim. Ochig'ini aytсам, ushbu xalqaro markaz o'ziga xosligi kishini lol qoldiradi. Ayniqsa, milliy hunarmandchilik namunalari o'zida jamlagan «Abadiy shahar» majmuasi odamlar bilan gavjum. Bu yerdagi mohir ustalar, rassomlar, hunarmandlar, yog'och o'ymakorlari, kulollar va naqqoshlar – O'zbekiston xalqi qodir bo'lgan eng asl ne' matnlarning bor negizi va mohiyati namoyishi sifatida har bir xorijlik mehmonda katta qiziqish uyg'otadi. «Abadiy shahar» majmuasida 100 dan ortiq xalq hunarmandchiligi va amaliy san'ati vakillarining ustaxonalari joylashgan. Ular o'zbek kulolchilik, o'ymakorlik, ipakchilik namunalari, milliy liboslar va suvenirlar, so'zanal va gilamlarni shu yerning o'zida yaratmoqda. Shuningdek, bu yerda taniqli rassomlar va dizaynerlarning ustaxonalari hamda shourmlariga ham o'rin berilgan e'tiborga loyiq. Press-tur yakunida biz «Yashil makon» aksiyasi doirasida daraxtlar ham ekkik.

Nasiba ZIYODULLAEVA



## SHIFO MASALASIDA MEHR VA MUHABBATGA TENG KELADIGANI YO'Q!

BMT ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzida taxminan 450 mln. kishida ruhiy va jismoniy rivojlanish nuqsonlari bor. Nutqiy, intellektual rivojlanishdagi buzilishlar (aqlan zaiflik); psixik tomondan kompleksli o'zgarishlar, kar-soqov, ko'rish qobiliyatida nuqsonli -bemorlar, tayanch-harakat tizimi kasalliklariga chalinganlar shular jumlasidandir. Bunday bemorlarning ayrimlari umumta'lim maktablarida tahsil olsa, yana ayrimlari maxsus ta'lim muassasalariga boradi. Ma'lumki, nogironligi bor shaxs jamiyatda o'zgaralar bilan o'zaro munosabatga kirishishda ko'plab noqulayliklarga duch keladi. Bunday vaziyatlar esa unga salbiy ta'sir ko'rsatadi, albatta.

Imkoniyati cheklangan shaxs – bu o'z ehtiyojlari va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan kishilardir. Ma'lumki, bugunga kelib ijtimoiy reabilitatsiya zamonaviy jamiyatda tobora katta ahamiyat kasb etib borayotgan yo'nalishlardan biriga aylangan. Ijtimoiy reabilitatsiyaning asosiy vazifasi – maxsus tashkil etilgan suhbat orqali shaxsning ijtimoiy maqomini tiklash, uning aloqa-munosabatlarda ishtirokini ta'minlash hamda shu orqali jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashishdan iborat.

Bugun imkoniyati cheklangan shaxslarning asosiy muammosi quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: tashqi olam bilan aloqa buzilganligi, bolalarda kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish borasida qiyinchiliklarga duch kelishi, tabiat bilan cheklangan muloqot, ta'lim olishdagi cheklavlar.

Imkoniyati cheklangan kishilarda qanday psixologik vaziyatlar kuzatiladi? Tekshiruvlar natijasiga ko'ra, imkoniyati cheklanganlarning psixologik holatida quyidagi emotsional o'zgarishlar bo'lishi mumkin: tengdoshlari va yaqinlari bilan muloqot kamligi, kasallik rivojlanishi tufayli o'z jismoniy «men»ni qabul qilish borasidagi qiyinchiliklar, ijtimoiy ko'makka, qarovga muhtojlik, qo'rquv, yolg'izlik hissi, jamiyatning boshqa sog'lom qatlami oldida ajralib qolish, o'zini kamtilgandek his qilish kabi holatlar.

Bunday kishilar, asosan, ochiq tabiat, dengizli, tog'li joylarda bo'lishni istashadi.

Nuqsoni sababli yuzaga chiqara olmagan his-tuyg'ularini faqatgina sukunat yordamida yengishga harakat qilishadi. Ular xayolan o'zlari uchun yaratib olgan ideal olamda yashashadi.


– 2019-yilning yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha rasmiy tarzda 710 mingga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar ro'yxatga olingan. Ularning 101 ming nafari – 16 yoshgacha bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalardan iborat, – deydi O'zbekiston nogironlar uyushmasi raisi Oybek Isoqov. – Imkoniyati cheklangan bolalarning aksariyatida musiqa, tasviriy san'at, kulolchilik, naqqoshlik kabi amaliy san'at turlariga qiziqish kuchli bo'ladi. Ana shu iqtidorni o'z vaqtida va to'g'ri anglagan holda ularga yetarli e'tibor berish orqali ularning kelajakda o'z yo'lini topib ketishiga imkon yaratish mumkin. Bundan tashqari, musiqa ta'limi imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, – deydi musiqa va san'at o'qituvchisi Bahodir Qurbonov.

– Ayni paytda Qonunchilik palatasida «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida»gi Qonun loyihasi muhokama qilinayapti. Qonunning 36-38-moddalari shunday kishilarga moslashtirilgan ta'limni yanada rivojlantirishga bag'ishlagan normalardan iborat, – deydi Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati Oydin Abdullayeva.

Ayrim hollarda jismonan yoki aqlan zaif kishi sog'lom shaxslarga go'zal qalbi va noyob zehni orqali o'rnatilgan bo'la oladi. Va, shuni haqiqatki, kimdir jismoniy nuqson bilan dunyoga kelgani, uning boshqalar oldida bosh egishiga sabab bo'la olmaydi. Shu ma'noda jamiyatning har bir a'zosi bu kabi imkoniyati cheklangan shaxslarni astoydil qo'llab-quvvatlashi lozim.




Zulfizar SAIDAHMADOVA,  
O'zDJTU Media va  
kommunikatsiya fakultetining  
2-bosqich talabasi



AGAR BIROVNI YAKSHILIKKA O'RGATISH QO'LINGIZDAN KELSA-YU, O'ZINGIZNI CHETGA OLSANGIZ – SIZ BIRODARINGIZNI YO'QOTIBSIZ. AGAR BIR ODAM NASIHATINGIZNI QULOG'IGA OLMASA-YU, SIZ TINMAY GAPIRAVERSANGIZ – YAKSHI SO'ZNI YO'QOTIBSIZ. DONO ODAM BIRODARINI HAM, SO'ZINI HAM YO'QOTMAYDI.

TOHIR MALIK

Shoirning 80 yilligi  
munosabati bilan



# Rauf Parfi

## YANA QAYTIB KELDIM

Yana qaytib keldim. Chang to'zgan  
Yo'limizni sog'indim, ona.  
Tom ustida maysalar o'sgan  
Uyimizni sog'indim, ona.

Aziz dargoh ostonasida  
Sizni qalbim bilan quchayin,  
To'yib-to'yib sopol kosada  
Muzdek quduq suvin ichayin.

Har bir narsa yaqindir menga,  
Har bir narsa menga qadrdon.  
Qarab qoldingizmi yo'limga  
Issiq nonlar uzib tandirdan?..

Koyimangiz meni bu safar,  
Umudni, deb uymi, dalamni,  
Ne chora bor, dil yonsa agar,  
Dil sog'insa turkiy olamni...

O, qishloqning munis chiroyi...  
Achchiq piyoz to'g'rayin o'zim.  
Dil sog'inib yig'laydi doim  
Hozir, mayli, yig'lasin ko'zim.

Targ'illanib bormoqda osmon,  
Oppoq hidga to'lmoqda bag'rim.  
Ayingizchi, bormi sog'omon  
Shahlo ko'zli mening targ'ilim?

Og'ushinda zangori sezgi,  
Kiprigimda suyuq hayajon.  
Ko'zlarimda yumaloq sevgi,  
Salomatman men ham, onajon.

Qaytib keldim yana. Chang to'zgan  
Yo'limizni sog'indim, ona.  
Tom ustida maysalar o'sgan  
Uyimizni sog'indim, ona.

## ODAMNING BOLASI

Yodimdadir achchiq dardlarim kabi,  
Fazolarda uchar edi xayolim.  
Qanot qoqmay o'q-tayyora singari,  
Bari o'z qo'llarim misoli tanish.

Qadim minoralar ko'ksida – yondim,  
Ilohiy yozuvlar yaralangandir.  
Bunda menga so'zlar fohih Iskandar,  
Tajang bo'lib xotiramning sabriga.

Tajang kezar qubbalar tepasida,  
Temurning cho'zilgan arvohi – bulut.  
Eski gap "Men odam bolasi" axir,  
Yodimda, yodimda men bechoraning.

Keyin menga har xil laqab berdilar,  
Avval jindek gunohim uchun – asir,  
Asirlik yoqmasdi menga, qul bo'ldim,  
Och qolishgan kuni sotdilar keyin.

Bosh degani nimadan yasalgan ekan,  
So'ng so'yidilar, Turkistonni so'yidilar,  
Zamon ichra boshlandi sargardonlik.  
Men kabilar ko'p ekan yer yuzida.

Biz to'plandik qolgani kundek ma'lum,  
Fazolarda xayolim uchar yana,  
Qanot qoqmay o'q-tayyora singari.  
Bari barmoqlarim misoli tanish

Dag'allashdim – salga jahlim chiqadi,  
Injalashdim – salga quvonchim dunyo,  
Asabim buzildi – fikrsizlikdan?!  
Shart otdim o'zimni – oriyatim bor!

Yuragimning ustki qatlami balki  
Sovuq, ichi yonib turar lovullab,  
Bu dunyoning ustki qatlami sovuq,  
Ko'ring, ichi yonib turar ehtimol.

Qo'llarim sirtida go'shtlar va paylar,  
Qo'llarim ichida qahrabo suyak.  
Oh, qanday yonardim krematoriya,  
Qo'limni kranga o'xshab ko'tardim.

Juda katta qishloq erur yer yuzi,  
Butun yer yuzida do'stlarim bordir,  
Do'stlar, men borimni ayamadim hech,  
Kerak bo'lsa, mana, tayyorman. Meni

Unutmangiz sira hamqishloqlarim,  
Boshimni olsinlar, mayli olsinlar,  
Dunyo, men ko'tarib yuribman hamon,  
Sening qayg'u-g'aming bo'lgan boshimni.

## BIR MUARRIXGA XASTA SONET

Og'zingga tupurgan shaytoni la'in,  
Pul desa, o'zingni tomdan otasan.  
Kimlarga qahkorsan, kimlarga mayin,  
Tarixni buzasan, iymon sotasan.

Burning ostidadir yuhonafas jarlik,  
Mushukdek suykanib, itdek hurasan.  
Kimlarni aldaysan qilib o'jarlik,  
Yolg'onning ustinda bazm qurasan.

Yolg'on yem tortasan, axir yigitsan,  
Ko'rib ketdi Azroil qamatayin,  
Ortiqcha tirnoqsan, ortiqcha etsan.

Izinda izing yo'q, so'zinda tayin.  
Sen hali kuchuksan, havaskor etsan,  
Ammo quturgan it bo'lishing tayin.

\*\*\*  
Ishq-vafodan so'zlaganlarim,  
Yetur senga ohu-fig'onim,  
Yodga tushar bo'zlaganlarim,  
Men olamdan o'tganda jonim.

Qaltirarsan ajib sezgidan,  
Har bir so'zim oshkor jahonim,  
Judo bo'lding buyuk sevgidan,  
Men olamdan o'tganda jonim.

Sen qoshimdan keta olmassan,  
Ko'zlaringda turarman yonib,  
Sevgimni rad eta olmassan,  
Men olamdan o'tganda jonim.

\*\*\*  
Ko'zimga To'qinar malolat, tumon,  
Cheksizlik qo'yimida yalang'och sukut,  
Ruhimda muallaq, jimlik bezabon –  
Neki o'tgan bo'lsa barchasin umut.

Zarba gali senda, mayli ko'ray men,  
Ovoz ber qaydasan o'lmas toqatim,  
Yo sukunat kafaniga o'ray men,  
O saodat, yo'q mening saodatim.

Faqat bordir soqov sukunat,  
Saodatini izlab chiqqan bir shoir –  
Men qachon bag'ringga yetgayman, faqat.

Yoril tosh, ey yoril tosh, yoril, axir,  
O'limning qoshida yoril, ayt, baqir,  
Chaqmoqlarga aylan endi sukunat.

## YURAK

Go'yo baribirdir yaxshi va yomon,  
Yurak, senga borar ko'chalar ochiq...  
Sachrab yonarsanu bo'lmassan tamom,  
O'tkinchi g'amlarga achchiqma-achehiq.

Yurak, yo'llaringda turganman takror,  
Rosa sayraganman sening to'g'ringda,  
Kim bilar, aqlimga kelding necha bor,  
Necha bor sayradim sening to'g'ringda.

Balki aldaganman vahima tutib,  
Sen ham tashvishlarga solgansan balkim.  
Bugun-chi degayman o'zimni tutib:  
Sen haqsan baribir mening yuragim.

Shul osmon tagida kezgaymiz hali,  
Mantiq axtargaymiz izg'ib izma-iz.  
Darkor bo'la qolsang yiqilgil, mayli,  
Faqat yiqilmasin sho'rlik dunyomiz.

Mayliga, hayqiray imonim haqqi,  
Ko'klarga termulib solayin urvos.  
Men faqat Turkiston atalgan yorqin,  
Farxunda zamona istayman faqat.

Garchi tutqunman-ku erkin sehringga,  
Unda sobit turar maqsud-manzilim.  
Qolib ketmasaydim sening mehringdan,  
Qolib ketmasaydim yo'lda uzilib.

Ajoyib diyorsan, qalbim, na chora,  
Shodlik va hasratning manzili sanda.  
Ovoz ber, kuyingni eshitib zora,  
Eslab qo'yarlar-ku hech bo'lmaganda.

Aytgil, kuylarmanmi bir kun, yuragim,  
Aytgil, kuylarmanmi boqmay o'zimga.  
Seni jarroh kabi sovuqqon va jim,  
Yulib qo'yarmanmi qog'oz yuziga.

U payt aldamasding ko'zimga boqib,  
Shoduman dardingni aytarding butkul.  
Ungacha ilhomlar kelmayag oqib,  
Ungacha dunyoni anglamak mushkul.

\*\*\*

Yorug'likni o'g'irlab sekin,  
Tevarakni qurshadi tuman,  
Ermak qilib tun cho'kdi, lekin  
Eshik ochib chiqmading-ku sen?

Deydilarki, ko'zing afsuni,  
Balo emish sehr etarmish,  
Kimki ko'rsa bir karra seni  
Oyoq yetganча ketarmish.

Sovuqni ko'r, yuzni chimchilar,  
Masxaraman unga bu zamon,  
O'ylaringga kelib sanchilar,  
Oy emas ul – u qotil kamon.

Bunda har ne ermaklar meni,  
Qorong'idir axir jahonim,  
Hech bo'lmasa ochgil darchani,  
Darpardani ochaqol, jonim.

## UYG'ON, EY MALAGIM

Uyg'on, ey malagim, tur o'rningdan, tur,  
Otashin muzlarda isinaylik, yur.

Yong'inli daryoda quloch otaylik,  
Bu yerdan ketaylik, faqat ketaylik.

Undan ham olisroq ketarmiz hali,  
Undan ham olisroq, mening go'zalim.

Qarag'il, eng yorqin bir yulduz yonar,  
Yorug' bir chaman bu... ketarmiz yana.

Bugun shoh erurman, tilak tilagin,  
Bugun men gadoman, tingla, malagim.

\*\*\*

Iztirobim, yoniq o'ylarim,  
Mening uchun faqat havasmi?  
Senga bo'lgan ishqim va mehrim,  
Hayotga muhabbatim emasmi?

Tashvishlar yo'q deb kim aytdi,  
Qayg'u yo'q deb kim aytdi, erkam?  
Shodliklaring agar qanchadir,  
Shuncha bo'lar tashvishlaring ham.

Uzun kunlar porlaydi yodda,  
Mening jondan ortiq sevganim.  
Qancha baxtli bo'lsam hayotda –  
Shuncha qayg'u boshimda manim.

Tog'da bir buloq bor zor-u zor  
Ko'ksida sevgining zahari.  
Ul manim ko'nglimdek intizor,  
Tog'lardan keladur sarsari.

Nimadir so'zlaydi shivirlab,  
Orziqib tushadi yo'llarga,  
Tog'larning sevgisin o'g'irlab,  
Boqmaydi ming turli gullarga.

Quyiga shoshilar tog'lardan,  
Kelguncha quriydi madori.  
Kelguncha adodir ohlardan,  
Yo'lga chiqmaydi ul yori...



**?** – 3 yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan budget tashkilotlarida ishlovchi ayollar haftasiga nechki soat ishlashlari kerak?

Intizor Xudoyqulova,  
Qashqadaryo viloyati,  
Kasbi tumani, hamshira

– Budget hisobidagi muassasa va tashkilotlarda ishlayotgan 3 yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga ish vaqtining haftasiga 35 soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilangan.

**Mohinur Bahramova,  
TDYU1 o'qituvchisi**

**?** – Papayya mevasini ko'p iste'mol qilish zararli deb eshitdim. Shu rostmi?

Muxlisa Rahmatova,  
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti talabasi

– Papayya tropik mevasining tarkibidagi papain fermenti sabab uni doimiy iste'mol qilish yaralarning bitishi va gastritning tuzalishiga olib keladi. Ushbu meva ochiq yaralarning bitishini ham tezlashtiradi. Pishgan mevani iste'mol qilish esa astma xurujini yengillashtiradi.

Bu meva iste'molidagi asosiy qarshi ko'rsatma – individual hazm qila olmaslik. Mevaning o'ta ko'p miqdorda iste'mol qilinishi oshqozon buzilishlariga olib kelishi mumkin. Shu bois, mutaxassislar pishib yetilgan mevani tanlashni tavsiya qilishadi. Chunki pishmagani tarkibida oshqozonda noxush holatlarni uyg'otuvchi zaharli sharbat bo'ladi.

**Aslbek Ibrohimov,  
terapevt shifokor**

**?** – Mahsulotni olganligimiz to'g'risida chek bor, ammo kafolat muddati talonda belgilanmagan. Do'kon egasi 10 kun ichida kelsangiz, almashtirib beraman degan edi. Bu holat qonun bilan tartibga solingami?

Azizbek Qilichev,  
Sergeli tumani, haydovchi

– Nuqsonli tovar sotilganda iste'molchi agar bu hol shartnoma tuzish paytida aytib o'tilmagan bo'lsa ham, almashtirib berishni talab qilishga haqli. Kafolat muddati va yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlarni qaytarish esa 6 oy mobaynida amalga oshirilishi mumkin.

**Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi axborot xizmati**

**?** – Dunyodagi birinchi Konstitutsiya qachon qabul qilingan? Shu haqida ma'lumot bersangiz?

Alibek Karimov,  
Yunusobod tumani  
271-maktab o'quvchisi

– Ma'lumotlarga ko'ra, AQSH Konstitutsiyasi dunyodagi ilk konstitutsiya hisoblanadi. U 1789-yili qabul qilingan. Aytish joizki, o'z davri uchun demokratik va mukammal sanalgan bu hujjat ham kamchiliklardan holi bo'lmagan. Amerikaliklar muqaddas hisoblaydigan qomusga bugungacha jami 27 marta tuzatish kiritishgan (ratifikatsiya qilingan).

**Daryo internet-nashridan olinadi.**

**?** – Ishsizlik nafaqasi kimlarga tayinlanadi? Iltimos, shu haqda ma'lumot bersangiz?

Xadicha Yo'ldosheva,  
Termez davlat universiteti talabasi

– Belgilangan tartibda ishsiz deb e'tirof etilgan barcha fuqarolar ishsizlik nafaqasi olish huquqiga egadirlar. Ishsizlik nafaqasini to'lash ishsiz shaxsning yashash joyi bo'yicha Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Qayd etish joizki, ishsizlik nafaqasiga soliq solinmaydi. Nafaqa ishsiz deb tan olingan shaxsga u mahalliy mehnat organida ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran hisoblanadi. Ishsizlik nafaqasi o'n ikki oylik davr ichida ko'pi bilan yigirma olti kalendar hafta davomida to'lanadi.

**Odina Abduxoliqova, huquqshunos**

**?** – Men 2 yildan beri maktabda qorovul bo'lib ishlayman. Maktab direktori hozirda qarindoshlik aloqalari mavjudligi sabab meni ishdan bo'shatmoqchi. Bu qanchalik asosli?

Ikromjon Fatxullayev,  
Chinoz tumani

– Mehnat kodeksining 79-moddasiga ko'ra, o'zaro yaqin qarindosh, quda-anda bo'lgan shaxslarning (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'il va qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va bolalari), basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bo'lsa, bir davlat korxonasida birga xizmat qilishlari taqiqlanadi.

**Mirg'ani To'ychiyev, huquqshunos**

SPORT

15 NAFAR DZYUDUCHIMIZ «PARIJ – 2024» YO'LLANMASI TIZIMIDA



Xalqaro dzyudo federatsiyasi sportchilarning "Parij-2024" Olimpiadasi uchun yangilangan reytingini e'lon qildi. Ahamiyatlisi, mazkur reytingga ko'ra, O'zbekiston terma jamoasining 15 nafar a'zosi kelgusi yilgi yozgi Olimpiya o'yinlarining litsenzion hududidan o'rin egallagan. O'zbekiston erkaklar terma jamoasi a'zolari olimpiya tizimida to'liq tarkibda e'tirof etilgan bo'lsa, qizlar terma jamoasining 4 nafar a'zosi "Parij-2024"ga yo'llanma beruvchi

tizimda qayd etilgan. Reytingda "Tokio-2020" Olimpiadasi g'olibi va jahon chempioni Davlat Bobonov o'z vaznida yetakchilik qilmoqda. Alisher Yusupov va Diyora Keldiyorova o'z vaznlarida 3-o'rinni egallashgan. Muzaffarbek To'raboyev, Shahram Ahadov, Obidxon No'monov, Murodjon Yo'ldoshev, Shohruh Baxtiyorov kuchli o'nlikdan, Dilshodbek Baratov, Muhriddin Tilovov, Sardor Nurillayev, Sita Qadamboyeva, Gulnoza Matniyozova yigirmatalikda,

Sharofiddin Boltaboyev va Halimajon Qurbonova esa o'ttiztalik qatordan joy olishgan. Shu o'rinda aytish kerakki, "Parij-2024" Olimpiya o'yinlariga yo'llanmalar taqdim etish tizimi 2024-yil 23-iyungacha davom etadi. Xalqaro dzyudo federatsiyasi nizomiga muvofiq, milliy terma jamoalarda bir vaznda ikki yoki undan ko'p sportchi litsenzion hududda bo'lsa, Olimpiya o'yinlarining ishtirokchisi terma jamoa murabbiylar shtabi qaroriga binoan belgilanadi.

**O'ZA**

«MILLIY TIKLANISH-DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI»

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**  
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,  
Abdulaziz AKKULOV,  
Ahror PO'LATOV,  
Amiriddin BERDIMURODOV,  
Akmal JIMABOYEV,  
Bahodir MAMATXONOV,  
Baxtiyor SAYFULLAYEV,  
Iltom ABDULLAYEV,  
Ibrohim G'OFUROV,  
Iroda DADAJONOVA,  
Minhojiddin MIRZO,

Bosh muharrir:  
Mirodil ABDURAHMONOV

**TAHRIRIYAT MANZILI:**

Toshkent shahri,  
Uchtepa tumani,  
Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.  
Gazeta tahririyati kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborida bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

**NAVBATCHI MUHARRIRLAR:**  
Ravshan MAHMUDOVA,  
Mabsuba KARIMOVA  
**NASHR UCHUN MAS'UL:**  
Ma'nurjon YULDOSHEVA  
**NAVBATCHI:**  
Viloyatxon SHODIYEVA  
**DIZAYN GURUHI:**  
Asilbek QUDRATOV,  
Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

Elektron pochta:  
mtk@tashkent.uz / mtk@tashkent.uz

ISSN 2010-7714



ISSN 2010-7714

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Gazeta haftanang chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 8 657.  
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda. **Qog'oz bichimi:** A3. Hajmi: 4 bosma tabaq.  
Buyurtma: G – 416  
Bosishga topshirish vaqti 21.00.  
Topshirildi 1:40